

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

4

5

7

BOTIROVA SH.I., SULTANOVA A.M.

2

AKT va media savodxonlik

1

(o'quv qo'llanma)

Ta'lim yonalishi: 60110500 – Boshlang'ich ta'lim

1

0

3

6

CHIRCHIQ-2024

UO'K 373.3;004
KBK 74.2;32.973
B-81

Sh.I.Botirova , A.M.Sultanova / AKT va media sovdxonlik / o'quv qollanma, - Chirchiq: «Osiyo tur», 2024. – 162 b.

60110500 – Boshlang'ich ta'lim uchun o'quv quroli va oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichi Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari modulining ishchi o'quv rejasi asosida tuzilib, Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari mazmunini ochib beradi.

Taqrizchilar:

Jumaev M. E. "Boshlang'ich ta'limda matematika va uni o'qitish metodikasi" kafedrası professori, pedagogika fanlari nomzodi.

Beketov N.A. - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

UO'K 373.3;004
KBK 74.2;32.973

O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 maydagi 232 sonli buyrug'i bilan o'quv qollanma sifatida nashrga tavsiya qilingan.

ISBN 978-9910-9965-2-8

© Sh.Botirova va boshqalar., 2024
© «Osiyo tur», 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1- MAVZU: TA'LIM MUASSASASI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHGA OID DASTURIY MAHSULLAR. (2 soat ma'ruza).....	5
2-MAVZU: TA'LIM BOSHQARISHNING AXBOROT TIZIMLARI (EMIS) VA O'RGATUVCHI TIZIMLAR (LMS). (Amaliy mashg'ulot 2soat).....	27
3-MAVZU: AKTDAN FOYDALANGAN HOLDA O'QUVCHILARNING TA'LIM OLISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHGA QARATILGAN TA'LIM STRATEGIYALARI (2 soat ma'ruza).....	62
4-MAVZU: TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN AXBOROT RESURSLARNI YARATISH TEXNOLOGIYALARI. (Amaliy mashg'ulot 2soat).....	81
5-MAVZU: KASBIY FAOLIYAT MAZMUNIGA MOS BO'LGAN AKTNI TA'LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYA QILISHNING TURLI STRATEGIYA VA YONDASHUVLARI. (2 soat ma'ruza).....	111
6-MAVZU: TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHGA MO'LJALLANGAN AXBOROT RESURSLARI VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR (Amaliy mashg'ulot 2soat).....	130
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	153
GLOSSARIY.....	156

KIRISH

Ushbu o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108 Farmoni va "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son hamda "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son, Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarorlari hamda Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi "Davlat ta'lim talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 121-sonli buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, pedagog kadrlarning malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan xalq ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida xalq ta'limi muassasalari pedagog kadrlari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

O'quv-uslubiy majmua mazmuni O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi axborot kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, o'zini-o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanishlarni o'z ichiga olib, ular bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malakava kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish.

1- MAVZU: TA'LIM MUASSASASI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHGA OID DASTURIY MAHSULLAR. (2 SOAT MA'RUZA)

REJA:

1. Internet tarmog'idan fanga oid elektron ta'lim resurslarini qidirish usullari
2. Elektron ta'lim resurslarini saqlovchi xalqaro platformalari

Internet tarmog'i orqali ma'lumot qidirishda brauzer dasturlaridan foydalaniladi. Bugungi kunda ko'plab brauzer dasturlari yaratilgan. Elektron o'quv resurslarini qidirish yoki undan onlayn ravishda foydalanish imkoniyatini internet brauzerlari foydalanuvchilarga taqdim etadi.

Brauzerlar – bu Internet resurslari va ma'lumotlaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturlar bo'lib, ularning quyidagi turlari mavjud: Bular:

Internet Explorer, Firefox Mozilla, Netscape Navigator, Opera, Google Chrome.

Opera. Internetdan foydalanishga yordam beruvchi Opera brauzeri 1994 yil yaratilgan va doimiy rivojlanib kelmoqda. Brauzer juda ko'p afzalliklarga ega: **Yuqori ish tezligi:** Internet sekin ulangan bo'lsa ham Opera "Turbo" rejimi tufayli sahifalarni tezda namoyish eta oladi. Tezkor tugmalar orqali dasturdan yana tez foydalanish mumkin.

Veb brauzer inglizcha so'z bo'lib, "Veb ni ko'zdan kechiruvchi", "Veb ni ko'rib chiquvchi" ma'nolarini anglatadi. Bizga bu so'z rus tilidan kirib kelganligi, rus tilida esa "brauzer" kabi aytilishini hisobga olib biz ham brauzer so'zini ishlatamiz.

Veb brauzer butun jahon to'rida joylashgan sahifani yuklash, tahlil qilish va uni ko'rsatish, sahifalararo o'tishlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Veb brauzer biror sahifani yuklash va sahifaga ma'lumotlar yuborish uchun HTTP protokolidan foydalanadi. Ko'pchilik brauzerlar FTP protokolidan ishlaydi va fayllar ro'yxatini sahifa ko'rinishida chop etadi.

Veb brauzer, veb sahifani siz uchun qulay ko'rinishda chop etadi. Ma'lum qoidalar asosida rasmlarni, matnlarni, ovoz yoki video ma'lumotlarni, turli animatsiyalarni mos ravishda joylashtirib chiqadi. Bundan tashqari,

sahifadagi siz kiritgan ma'lumotlarni kerak joyga jo'natish, boshqa sahifaga o'tishda, JavaScript kodlaridan foydalanadi.

Kompyuterni Internet tarmog'iga ulaganimizdan keyin albatta Internetda biror bir axborotni ko'rishga intilamiz. Internet tarmog'ida ma'lumot asosan Veb-sahifa (sayt) shaklida tasvirlanadi. Bunday Veb-sahifalarni ko'rish uchun maxsus «brauzer» dasturlari ishlab chiqilgan. Ular yordamida Veb-sahifani ko'rish, saqlash, chop etish va boshqa bir qator imkoniyatlarga ega bo'lish mumkin. Hozirgi kunda bunday dastur turlari juda ko'p. Bular orasida keng tarqalgani Microsoft Internet Explorer va Netscape Navigator dasturlaridir. Birinchi dastur tekinga berilsa, ikkinchisi tijorat shaklida (pulli) tarqatiladigan dasturdir. Ular asosan bitta yoki bir nechta Veb-sahifani ochish, undagi ma'lumotni tasvirlash kabi amallarni bajaradi.


Internet tarmog'ida qidiruv tushunchasi shuni anglatadiki, bunda har bir foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'lgan biror ma'lumot yoki materialni maxsus qidiruv tizimlari orqali topish imkoniyatiga ega bo'ladi. Internet - bepoyon axborot ummoni. Axborotlar Internetda millionlab Veb-sahifalarda saqlanadi. Bizga kerakli axborot saqlanadigan Veb-sahifani topish uchun uning Internetdagi adresini bilish zarur. Ammo internet soat sayin yangi axborotlar bilan boyib boradi. Shuningdek, ba'zi (eskirgan) axborotlar Internet tarmog'idan chiqarib tashlanadi. Internetdagi ko'p foydalaniladigan Veb-sahifalar adreslari maxsus ma'lumotnomalarda chop etib turiladi. Lekin ulardan to'liq axborot olib bo'lmaydi. Chunki Internetdagi barcha Veb-sahifalar adreslarini chop etish uchun juda katta hajmli kitob kerak bo'ladi. Bu kitob chop etib tugatilmasidan Internetdagi bir qancha adreslar o'zgarishi aniq. Bu muammo maxsus Qidiruv tizimlari yaratilishi bilan osonlikcha hal etildi. Internet tarmog'i foydalanuvchilari qidiruvni Internet muhitida joylashgan veb-saytlar, ularning manzili va ichki ma'lumotlari bo'yicha olib borishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo'lgan axborotni samarali qidirish va tez topish imkoniyatini beradi.

Axborotlarni qidirish. Internet tarmog'i shunday bir muhitki u o'zida turli ko'rinishdagi va turli tillardagi ko'plab axborotlarni jamlagan. Bunda ushbu axborotlar ichidan kerakli bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topish muammosi paydo bo'ladi. Internet tarmog'ida har bir foydalanuvchi axborotni qidirish uchun o'zbek, rus, ingliz yoki boshqa tillardagi bir yoki bir necha so'zdan tashkil topgan so'rovlardan foydalanadi. Ya'ni ma'lumotlarni uning sarlavhasi yoki uning tarkibida ishtirok etgan so'zlar va jumlar bo'yicha qidirib topish mumkin. Bunda foydalanuvchi tomonidan Internet

qidiruv tizimi qidiruv maydoniga kerakli ma'lumotga doir so'z yoki jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi. Shundan so'ng qidiruv tizimi foydalanuvchiga o'zi tomonidan kiritilgan so'z yoki jumlagi mos keluvchi ma'lumotlarni qidirib topadi va kompyuter ekranida ularning ro'yxatini hosil qiladi. Vanihoyat ro'yxatdagi ma'lumotlarni ketma-ket ko'rib chiqilib kerakli bo'lganlari kompyuterga saqlab olinadi.

Ko'p ishlatiladigan qidiruv tizimlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Google.
- Bing.
- Yahoo!
- Baidu.
- DuckDuckGo.
- Yandex.



Google - bu Google tomonidan taqdim etilgan qidiruv tizimi. Kuniga 3,5 milliarddan ortiq qidiruvni amalga oshirib, u global qidiruv tizimlari bozorining 92% ulushiga ega. Shuningdek, u dunyodagi eng ko'p tashrif buyuriladigan veb-sayt hisoblanadi.

DuckDuckGo — ochiq kodli va biroz tanilgan qidiruv tizimi. Uning serverlari AQShda joylashgan. O'z qidiruv algoritimidan tashqari, u boshqa manbalarning natijalaridan ham foydalanadi. Bularga Yahoo!, Search BOSS, "Vikipediya", WolframAlpha kabi tizimlarni misol qilish mumkin. DuckDuckGo foydalanuvchiga maksimal darajada maxfiylikni ta'minlab bera oladi. Tizim foydalanuvchi haqida hech qanday ma'lumot to'plamaydi, qidiruv tarixini saqlamaydi, Cookie fayllaridan foydalanish cheklaydi. Yirik qidiruv tizimlari esa natijalarni shaxsiylashtirishga urinadi, ya'ni siz haqingizda axborot to'plab, shu asosda kerakli natijalarni ko'rsatishga harakat qiladi.


Buning yomon tomoni — shaxsiy ma'lumotlaringiz tizimda saqlab qolinadi. Ularning maxfiy qolishini istasangiz, Duck DuckGo'dan foydalaning.

Microsoft Bing - bu Microsoft kompaniyasiga tegishli va boshqariladigan veb-qidiruv tizimi. Qidiruv tizimi Microsoftning oldingi qidiruv tizimlaridan kelib chiqqan: MSN Search, Windows Live Search va keyinroq Live Search. Bing turli xil qidiruv xizmatlarini, jumladan, veb, video, rasm va xaritalarni qidirish imkoniyatlarini foydalanuvchilarga taqdim etdi.

3. Google Chrome brauzeridan orqali Google qidiruv tizimidan foydalanish ketma-ketligi.




1-rasm. Bizga kerakli razryadni tanlaymiz




2-rasm. Bizda quyidagicha dasturni o'rnatish oynasi ochiladi



3-rasm. O'rnatish jarayoni tugagandan so'ng bizni ish stolimizda quyidagicha yorliq paydo bo'ladi



4-rasm. Endi yorliqni ikki marta bossak quyidagicha oyna ochiladi. Bu dastur 1-marta ishga tushganligini anglatadi. «Next» tugmasini bosamiz




5-rasm. Bu oynaning maqsadi sizda bir necha brauzerlar bo'lganda qaysi bir asosiy bo'lishni belgilashda google chrome brauzerini taklif qiladi. Biz albatta Chrome brauzerini tanlaymiz



6-rasm. Ochilgan oyna bizning brauzerimizning oynasi hisoblanadi.

Endi brauzerimizning oynasi nimalardan tashkil topganligi bilan tanishib chiqamiz Chrome brauzeri quyidagi asosiy elementlardan tashkil topgan:


1. Bu tugmalar ochilgan sahifalarni oldinga, orqaga qaytarish va qayta yuklash tugmalari hisoblanadi;
2. Ochilgan sahifa nomi yoziladigan joy;
3. Sahifani ochish uchun manzil yoziladigan joy;
4. Yangi manzillarni ochish uchun brauzer oynachalarini qo`shish tugmasi;
5. Agar sizda gmail da pochta (keyingi darslarimizda pochta haqida ko`rib chiqamiz) qutingiz yoki «account» ingiz mavjud bo`lsa chrome brauzeriga qo`shib qo`yishingiz mumkin;
6. Ochilgan sahifani yo`qotib qo`ymaslik uchun uni metka yani manzilning o`zini saqlab qo`yishingiz uchun kerak bo`ladigan tugma;
7. Chrome sozlamalar, kengaytmalar va turli boshqa bo`limlarga o`tish joyi.




7-rasm. Endi internetdagi biron saytga kirmoqchi bo`lsak biz, 1 raqami turgan joyga kirmoqchi bo`lgan saytimizning manzilini yozamiz va 2 raqami turgan joyda bizga turli taklif etuvchi manzillarni ko`rsatadi



8-rasm. Manzilni yozib «Enter» tugmasini bossak bizga kerakli manzil yuklanadi. Misol sifatida biz Google.com qidiruvsaytini yozdik



9-rasm. Manzil yozadigan joyga biz manzildan tashqari boshqa narsa yozsak bizga bu chrome brauzeri google qidiruv tizimi orqali avtomatik tarzda yozgan narsamiz haqida ma'lumot qidirishni boshlaydi



10-rasm. Qidiruv natijalari

Google qidiruv tizimi bir qancha kalit iboralar mavjud va ular foydalanuvchilarga ma'lumotlarni qidirishda yordam berishi mumkin. Ular bilan quyida tanishish mumkin.

MAXSUS QIDIRUV USULLARI

food near me, coffee near me

19*8

Solve rectangle

5 kilometers to miles

translate Uy vazifasini bajaring

Samarkand to Tashkent

Oddiy qidiruv (tarqatma materiallar)

Qat'iy qidiruv ("tarqatma materiallar")

Qo'shma qidiruv (tarqatma + materiallar)

Ayirma qidiruv (tarqatma - materiallar)

*li qidiruv (tarqatma * materiallar)

Filetype (*.doc, *.pdf, *.ppt)


Rasmiy saytlar orqali (tarqatma materiallar site facebook.com)

Elektron ta'lim resurslariga videolarni, PDF hujjatlarini, slayd-shoularni va matnli hujjatlarni kiritish mumkin. Ushbu resurslar mavjudligi tufayli har bir inson yangi bilimlarni mustaqil o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Onlayn kurslar ko'pincha Learning Management Systems (LMS) platformalari orqali yaratiladi. Bu esa o'quv materialini barqaror sur'atda yetkazib berish imkonini taqdim etadi. LMS platfromalari orqali yaratilgan kurslarda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish oson va qulaydir. Ular ko'pincha o'quvchilarga o'z bilimlarini sinab ko'rishlari va qo'llashlari uchun interfaol materiallarni taqdim etadi. Misol sifatida Skillshare va Udemy keltirish mumkin. Elektron ta'lim resurslariga yana bir misol onlayn repititorlik xizmatlaridir. MyTutor va TutorHub kabi veb-saytlar tufayli endi istalgan fan bo'yicha onlayn repititorlardan foydalanish mumkin. Darslar Skype va Zoom kabi video aloqa platformalari orqali amalga oshirilsa materiallar ijtimoiy


tarmoqlar yoki bulutli saqlash platformalari orqali o'quvchilarga yetkazish mumkin.

LMS platformalariga misollar:

Schoology (<https://www.schoology.com/>) - bu ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan bulutli LMS. Schoology Google Drive, Microsoft OneDrive, Blackboard Collaborate, Moodle, PowerSchool, Evernote va YouTube bilan birlasha oladi. Shuningdek, u maktab ma'lumotlari tizimi bilan sinxronlashadi. O'qituvchilarga o'quvchilar bilan o'quv materiallari va topshiriqlar yuzasidan fikr almashishga hamda o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan uyushgan holda aloqa qilish imkoniyatini beradi.



iSpring Learn (<https://www.ispringsolutions.com/ispring-learn>) platformasi ta'lim muassasalari va kompaniyalarda kadrlar tayyorlash uchun ishlab chiqilgan. Biroq, amalda asosiy mijozlari sifatida ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Platformaning ma'ruza muharriri bo'limi yordamida modul va uning materiallari (matnli, audio, video, taqdimot, simulyatorlar, topshiriqlar, testlar va b.) kiritiladi. Hisobotlar bo'limi yordamida foydalanuvchilar faoliyati va o'zlashtirish natijalari tahlili va statistikasini olish mumkin.



Google Classroom (<https://classroom.google.com/>) - ta'lim uchun mo'ljallangan platforma bo'lib, kurs/sinf ni yaratish, unga o'quvchilarni qo'shish, kerakli o'quv materialini kiritish, o'quvchilarga taqdim etish, o'quvchilar uchun topshiriqlar berish, ularni ishlarini baholash va faoliyatlarini kuzatib borish, o'quvchilar bilan muloqot qilish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi. Google Classroom da Google da akkaunti bo'lgan ixtiyoriy foydalanuvchi kurs yaratishi mumkin.



Learn Dash - bu ommabop kontentni boshqaruv tizimida (CMS) sinflarni yaratish, boshqarish, o'zgartirish va nashr etish imkonini beradigan ishonchli plugin. Bu plugin WordPress platformasi tarkibida ishlaydi. Shu

sababli agar ta'lim muassasasi kompyuteriga WordPress o'rnatilgan bo'lsa, u holda LearnDash plaginini o'rnatgan holda o'quv kurslarini yaratish mumkin.

1. Plagin bir nechta kurslar yaratish va kurslar tarkibini bir sinfdan boshqa sinfga nusxalash imkonini beradi. Kontent tarkibidagi funksiyalar yordamida sertifikat hamda nishonlarni rasmiylashtirish mumkin.



2. Bugungi kunda o'quvchilarda mobil telefonlar, planshetlar, noutbuklarning mavjudligi masofadan turib ta'lim olish imkoniyatini beradi. MOOC kurslari o'quvchilarga yil davomida yoki qisqa sessiyalarda ta'lim olish imkoniyatini beradi. MOOC platformalari orqali dunyoning Garvard va Massachusetts singari nufuzli ta'lim muassasalari turli yo'nalish va turli darajadagi onlayn kurslarni taqdim etadi. MOOC kursari bir vaqtning o'zida minglab o'quvchilarni ro'yxatdan o'tkazish, yil davomida belgilangan vaqt ichida yoki ixtiyoriy vaqtda kursga a'zo bo'lib o'qish imkoniyatini beradi.

MOOC platformalarida ta'lim olish quyidagicha

- kurslarda o'qish va sertifikat olish bepul;
- kurslarda o'qish bepul, sertifikat olish pullik;
- kurslarda o'qish va sertifikat olish pullik.

Bugungi kunda MOOCning ikkita keng tarqalgan turi mavjud:


cMOOCs(ingliz tilida «connectivity MOOC»). Bu turdagi MOOClarning asosiy tamoyili – ommaviylik, ochiq ro'yxatdan o'tish, kursni tugatguncha ma'lumotlardan foydalanish, ta'lim oluvchilarning teng huquqliligi, ya'ni talaba va o'qituvchi bu – jamoa. Bu kabi kurslarda ta'lim oluvchilarning o'zaro

munosabatiga qaraladi. Ta'lim bir-biri bog'langan onlayn guruhda olib borilib, ta'lim oluvchilar blog, ijtimoiy tarmoq va b. yordamida bir-birlari bilan faol muloqotda bo'lishadi. Bunday ta'lim turi turli sohada faoliyat yuritayotgan insonlarni o'xshash qiziqishlari asosida birlashtiradi, ta'lim oluvchilar ichidan yagona g'oya ustida izlanishlar olib borayotganlarni hamkorlikka undaydi. Bitta kamchilik tomoni, ta'lim oluvchilar kurs o'qituvchisi tomonidan baholanmaydi. Bugungi kundagi mashxur MOOC platformalariga **Coursera, Khan Academy, Lektorium, edX, Udemy, Udacity va boshqalarni kiritish mumkin.**


xMOOCs. Nufuzli ta'lim muassasalari tomonidan taklif etilgan ochiq onlayn kurslar. MOOC kurslari ta'lim muassasalari o'qituvchilari tomonidan ta'lim muassasa dasturi asosida yaratiladi va o'qish belgilangan grafik asosida olib boriladi. Bu kabi kurslarni o'quv jaaryoni uchun joriy etish juda qulay hamda ta'lim modeli an'anaviy o'qitishga o'xshab ketadi. Bu kurslarda ham ta'lim oluvchilar topshirishi kerak bo'lgan vazifalar, ularni bajarish muddat, kurs so'ngida imtihon mavjud bo'lib, barcha jarayonlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi.

2. Elektron ta'lim resurslarini o'zida saqlovchi xalqaro ta'lim platformalari:

Coursera (<https://www.coursera.org/>) – MOOC platformalarining yuzi hisoblanadi. Ushbu platforma 2012 yilda Stenford universitetining kompyuter fanlari professor-o'qituvchilari tomonidan tashkil etilgan. Coursera platformasi birinchilardan bo'lmasada, to'g'ri tanlangan o'qitish strategiyasi hamda tijoriy profil tufayli bugungi kunda onlayn ta'limning yetakchisiga aylandi. 190 dan ortiq ta'lim muassasa professor-o'qituvchilari platforma resurslari bilan ishlaydi.




Khan Academy (<https://khanacademy.org/>) platformasi boshqa MOOCs lardan farqli ravishda, ta'limga interaktivlik va o'yin texnologiyalarini qo'llagan, o'z vaqtida birinchilardan bo'lgan mashhur loyiha. Bugungi kunga kelib platforma 36 dan ortiq tillarda (o'zbek tili ham mavjud) 10 mingdan ortiq kichik video darslarni to'plagan. Ushbu platformada 100ming dan ortiq interfaol misollar va topshiriqlar mavjud. **Khan Academy** darslari 190 dan ortiq mamlakatlarda qo'llaniladi va hozirgi kunda 74 milliondan ortiq foydalanuvchilar platformadan foydalanadilar. Eng asosiy jihati, maktab fanlaridan to'liq dasturlar va ko'plab darslar, shuningdek, ota-onalar yosh bolalari bilan shug'ullanishi uchun tayyor metodikalar joylashtirilgan.




ЛЕКТОРИУМ (<https://www.lectorium.tv/>) - notijorat loyihasi bo'lib, ommaviy onlayn ochiq kurslar formatida o'quv materillarini yaratadi. Shuningdek videodarslarni suratga olib, joylashtiradi. Ushbu platforma maktab o'quvchilari, abituriyentlar, mutaxassislar, ota-onalar uchun turli o'quv dasturlar va darslarni taqdim etadi.



edX (<https://www.edx.org/>) Garvard va Massachusets texnologiya instituti tomonidan 2012 yilda tashkil etilgan bo'lib, dunyo bo'yicha barcha ta'lim oluvchilar uchun yuqori sifatli kurslarni taklif etadi. Platformada Massachusets texnologiya instituti tomonidan o'quvchilar uchun mexanika bo'yicha kurs ochilgan. Uning maqsadi o'quvchilarga murakkab fizika mavzularini tushunishga yordam berish va ularga mustaqil ravishda yechim topish edi. Bu kurs o'rta maktab o'quvchilariga DAK imtihonlariga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi. Laboratoriya uchun virtual laboratoriyalarini joylashtirilganligi kursni yana ham qiziqarli qiladi. Kurslar bepul, faqatgina sertifikat olish uchun pul to'lanadi.



Udemy (<https://www.udemy.com/>) - ma'lum bir mavzu bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallash uchun ajoyib vosita. Udemyda nafaqat o'rganish, balki o'z darslarini joylash orqali pul ishlash imkoniyati ham mavjud. Shu sababli platformada 20000 dan ortiq kurslar va 4 mln ga yaqin foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tgan. Kurslar pullik va bepul, kursni tugatgandan so'ng ta'lim oluvchilarga sertifikat rasmiylashtiriladi.



2. Xalqa ta'limi tizimida ta'limni raqamlashtirish jarayoni jadallik bilan olib borilmoqda. Jumladan elektron ta'lim resurslarini o'zida jamlagan bir qancha saytlar va portallar faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu o'qituvchilar va o'quvchilar uchun fanlar yuzasidan ko'plab qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishi bilan ahamiyatlidir.

Xalq ta'limi tizimidagi elektron ta'lim resurslari mavjud sayt va portallar:




3. [uzedu.uz](http://www.uzedu.uz) - Xalq ta'limi vazirligining rasmiy veb sayti. Sayt xalq ta'limiga oid so'ngi yangiliklarni, huquqiy normativ hujjatlarni, sohadagi bo'sh ish o'rinlarini, statistik ma'lumotlarni, ota-onalar, pedagoglar va o'quvchilar uchun kerakli hujjatlarni o'zida jamlagan. Shuningdek, sayt orqali Xalq ta'limi vazirligining eduportal.uz elektron resurslar platformasiga o'tish imkoniyati taqdim etilgan.



www.maktab.uz - 1-11-sinflar uchun onlayn umumta'lim maktabi bo'lib o'quv dasturi bo'yicha videodarslar va boshqa materiallarni o'zida jamlagan. Platforma har bir o'quvchiga eng yaxshi o'qituvchilardan ta'lim olish imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu bilan birga doimiy rivojlanitirib borilmoqda. Platforma materiallaridan maktab o'quvchilari va ota-onalari va o'qituvchilar

maktab dars jarayonida foydalanishi mumkin. Maktab.uz - bu masofaviy ta'limning to'laqonli **ekotizimini** taqdim etganligi bilan ahamiyatlidir.



library.ziynet.uz - Respublika ta'lim tizimining turli bosqichlari uchun elektron resurslarni o'zida jamlagan platforma hisoblanadi. Platforma orqali o'quv jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan audio va elektron manbalarni yuklab olishingiz mumkin. Shuningdek, platforma o'qituvchilar o'z ustida mustaqil ishlashlariga yordam beruvchi metodik va o'quv qo'llanmalarining katta jamlanmasini taqdim etadi.




dr.rtm.uz - Xalq ta'limi vazirligi va Respublika ta'lim markazi tomonidan taqdim etilgan va elektron ta'lim resurslarining keng jamlanmasini o'zida saqlovchi platforma hisoblanadi. Unda asosan yangi avlod darsliklari bilan bog'liq resurslarni topish mumkin. Foydali jihatlaridan biri dars uchun kerakli bo'lgan materiallarning jamlanmasini palatforma taqdim etadi. Ular sarasiga darslik, taqdimot, video rolik, metodik material, qo'shimcha manbalar va boshqalarni kiritish mumkin.



Xalq ta'limi tizimidagi elektron ta'lim resurslarning asosiy qismi ko'rib o'tilgan sayt va platformalarda mavjud bo'lib, ulardan foydalanish bepul. Foydalanish jarayonida ayrim qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lish uchun

ro'yxatdan o'tish tavsiya etiladi. Jumladan, Maktab.uz va library.ziynet.uz ro'yxatdan o'tish maqsadga muvofiq.



Ta'lim boshqaruviga oid axborot tizimlari

1. uzedu.uz – Xalq ta'limi vazirligining rasmiy veb sayti
2. avloniy.uz – Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti
3. masofa.uz – Avloniy nomidagi MTI masofadan o'qitish portali
4. xt.uzedu.uz – Maktab ta'lim jarayonini boshqarish tizimi
5. kundalik.com – Kundalik avtomatlashtirilgan ta'lim axborot tizimi
6. attestat.uzedu.uz – Umumta'lim muassasalari bitiruvchilari attestatlarini ro'yxatga olish tizimi
7. reyting.tdi.uz – O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarining milliy reytingi
8. my.maktab.uz – Umumta'lim maktablariga o'quvchilarni onlayn qabul qilish tizimi
9. erp.maktab.uz – Xalq ta'limini boshqarish tizimi
10. stat.uzedu.uz – Xalq ta'limi vazirligi maktablardagi qurilish va ta'mirlash ishlarini onlayn monitoringi
11. pm.piima.uz – Prezident ta'lim muassasalari agentligi veb sayti O'quv jarayonini tashkil qilishda foydalaniladigan portal va saytlar
12. ziynet.uz – Ta'lim tarmog'i portali

13. onlinedu.uz – Uzlaksiz kasbiy ta'lim platformasi
14. stesting.uz – Xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash sinov platformasi
15. rtm.uz – Respublika ta'lim markazi
16. dr.rtm.uz – Elektron resurslar
17. xanakademiya.uz – Xan Akademiyasi ta'lim platformasi
18. utube.uz – Ziyonet tarmog'i ta'lim videoportali
19. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi
20. natlib.uz – O'zbekiston milliy kutubxonasi
21. taqvim.uz – Respublika bolalar kutubxonasi
22. maktab.uz – Videodarsliklar kutubxonasi
23. manaviyat.uz – Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi
24. <http://360.vrmuseum.uz/> - Virtual muzeylar
25. meros.uz – O'zbekiston madaniyat me'rosi
26. kultura.uz – O'zbekiston madaniyat yangiliklari
27. marifat.uz – «Ma'rifat» gazetasi tahririyati
28. stateartmuseum.uz – O'zbekiston davlat san'at muzeyi
29. temurid.uz – Temuriylar tarixi muzeyi
30. aloqamuzeyi.uz – Aloqa muzeyi
31. hunar.uz – «Hunarmand» uyushmasi

Hukumat portallari, interaktiv xizmatlar

33. www.uz – Milliy axborot qidiruv tizimi
34. gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali
35. my.gov.uz – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
36. my.mehnat.uz – Yagona milliy mehnat tizimi

37. **my.soliq.uz** – Elektron soliq xizmatlari
38. **lex.uz** – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi
39. **prezident.uz** – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb – sayti
40. **pm.gov.uz** – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi
41. **parliament.gov.uz** – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi
42. **press-service.uz** – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati
43. **strategy.uz** – Taraqqiyot strategiyasi markazi
44. **regulation.gov.uz** – O‘zbekiston Respublikasi normativ huquqiy hujjatlarining muhokamasi
45. **meningfikrim.uz** – Jamoatchilik tashabbuslari yagona platformasi
46. **365.gov.uz** – Voqealar va tadbirlar portali
47. **afisha.uz** – Afisha Tashkenta
48. **e-ticket.railway.uz, https://chipta.railway.uz** – O‘zbekiston temir yo‘llari, elektron chiptalar
49. **uzairways.com** – O‘zbekiston havo yullari, elektron chiptalar
50. **aviasales.uz, tickets.uz** – Avia chiptalarni bron qilish
51. **iticket.uz** – Onlay chiptalar(konsert, teatr va boshqalar)
52. **dyhxx.uz** – Jarimalarni tekshirish
53. **ijro.gov.uz** – Ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi
54. **http://mu.het.uz:7003/pcabinet** – Hududiy elektr tarmoqlari

Xorjiy davlatlar ochiq axborot ta‘lim resurslari

55. **kopilkaurokov.ru** – O‘qituvchilar uchun sayt
56. **yakclass.ru** – Maktab o‘quvchilari va o‘qituvchilari uchun ta‘limiy internet resursi
57. **intuit.ru** – Milliy ochiq universitet, Rossiya
58. **dnevnik.ru** – Raqamli ta‘lim platformasi, Rossiya
59. **khanacademy.org** – Khan Academy elektron ta‘lim platformasi
60. **coursera.org** – Masofaviy ta‘lim platformasi (MOOC)
61. **udacity.com** – Masofaviy ta‘lim platformasi (MOOC)
62. **onlinetestpad.com** – Masofaviy ta‘lim va test topshiriqlar sayti

Nazorat savollari:

1. Maktab veb-saytlari haqida ma‘lumot bering?
2. Ziyonet.uz saytidan ro‘yxatdan o‘tish orqali qanday qo‘shimcha hizmatlarni foydalanish mumkin?
3. Elektron ta‘lim resurslarini o‘zida saqlovchi qanday xalqaro saytlarni bilasiz?
4. Elektron ta‘lim resurslarini o‘zida saqlovchi respublika miqyosidagi qanday saytlarni bilasiz?
5. **Maktab.uz sayti** o‘quvchi va o‘qituvchilarga qanday hizmatlarni taklif etadi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta‘limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
2. S.Eshqobilov, B.Xurramov "Fanni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish". O‘quv qo‘llanma–A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI, 2019-y

3. B.S.Axrarov. Taqdimot yaratish va namoyish etish texnologiyalari. Metodik qo'llanma. – T., "Impress Media", 2019-y.

4. A. Djaylavov, T. Qodirov. Kompyuter tarmoqlari va internetda ishlash asoslari. Metodik qo'llanma. – A. Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2015-y

5. <http://emis.uzedu.uz>

6. <http://dr.rtm.uz>

7. <http://online-maktab.uz>

2-MAVZU: TA'LIM BOSHQARISHNING AXBOROT TIZIMLARI (EMIS) VA O'RGATUVCHI TIZIMLAR (LMS). (AMALIY MASHG'ULOT ZSOAT).

REJA:

1. "Kundalik" avtomatlashtirilgan ta'lim axborot tizimi.

2. Ta'lim muassasalarini boshqarishda axborot tizimlaridan samarali foydalanish.

"Kundalik" avtomatlashtirilgan ta'lim axborot tizimi.


Kundalik maktabda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi. Baholar, dars jadvali, uy vazifasi, ijodiy topshiriqlar hamisha qo'l ostingda! Batafsil ma'lumot Davlat organlariga. Ta'limni boshqaruvchi organlar uchun **Kundalik** – ta'lim muassasalari faoliyatini onlayn nazorat qilish vositasidir.

"Kundalik" - IT kompaniyasi o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, ta'lim muassasalari ma'muriyatlari, hamda ta'limni boshqarish organlari vakillari uchun yagona elektron ta'lim muhitini ishlab chiquvchidir.

Kompaniyaning flagman mahsuloti – ta'lim muassasalari uchun elektron hujjat aylanish imkoniyatlarini va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida ijtimoiy tarmoq vositalarini birlashtiradigan «Kundalik» avtomatlashtirilgan ta'lim axborot tizimi: o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar tomonidan.

Faoliyatning muhim yo'nalishlari:

- Maktab ta'limini modernizatsiya qilish.
- Ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) integratsiyasi.
- «O'qituvchi-o'quvchi-ota yoki ona» interaktiv kommunikatsiyasini rivojlantirish
- Axborot almashinishning yagona muhitini joriy etish.
- Maktab ekotizimini yaratish va xizmat ko'rsatish.
- Masofaviy ta'lim uchun imkoniyatlarini yaratish.



Kundalik/comning imkoniyatlari

O'qituvchilar uchun

Maktab sahifasi

Kundalikda ta'lim muassasasining biznes kartasi: ma'muriyat xodimlari, aloqa uchun ma'lumotlar, yangiliklar, huquqiy va boshqa hujjatlar, e'lonlar, fotogalereya va forum. Maktab sahifasi va uning bo'limlarini ommalashtirish uchun sozlash mumkin.



Dars jadvali va darslar

Dars jadvalini oson va tushunarli qilib kiritish. Almashtirish, ko'chirish va bekor qilishlarni ko'rsating. Bir vaqtning o'zida sinf bo'yicha bir haftalik dars jadvalini, butun hisobot davri yoki barcha o'qituvchilar bo'yicha dars jadvali setkasini ko'ring yoki chop eting

	Пн, 4 мар	Вт, 5 мар	Ср, 6 мар
0			
1	Алгебра Азамов Т О 9:00 - 9:45 105	Информатика Дибарова Т Г 9:00 - 9:45 203	Черчение Набиева Н И 9:00 - 9:45 110
2	Геометрия Каримов О.А 10:00 - 10:45 105	Алгебра Азамов Т О 10:00 - 10:45 105	Рус язык Галиуллина Е.В. 10:00 - 10:45 110
	Ин яз Агапонов С.В 11:00 - 11:45 505	Физ. культура Абидова Ф.П 11:00 - 11:45 Стадион	Алгебра Азамов Т О 11:00 - 11:45 105

Elektron jurnal Odatiy qog'oz jurnalining standart turi va bir qator qo'shimcha ko'rinishlari: kunlik jurnal, haftalik jurnal, dars sahifasi Ma'muriyat baholash tizimlarini va darslarda ish turlarini tanlashi mumkin. Jurnalning barcha ko'rinishlari rangli va oq-qora variantlarda mavjud. O'qituvchi har qanday darsga sharhlar va qo'shimcha materiallar qo'shishi mumkin.

	09	09	11	11	14
	07B	07B	07B	07B	07B
1	Алиев Шайхон				
2	Алиев Алишер				
3	Бабаева Азиза				
4	Валерий Ава				
5	Каримова Навоита				
6	Назаров Руслан				
7	Умарова Дилана				

Uy vazifalarini boshqarish

Uy vazifalarini boshqarish interaktiv moduli uy vazifalarini butun sinfga yoki alohida o'quvchilarga berish, turli xil sinflar uchun ulardan nusxa olish, ularga fayllar qo'shish va bajarilish jarayonini nazorat qilish imkonini beradi.

Описание задания	Урок	Статус
стр. 45, упр. 4-5	2 мая 2019 1 урок	Завершено
§3	3 мая 2019 1 урок	Выдано
Р.Т. с 52 №6, 6	7 мая 2019 2 урок	Выдано
Р.Т. с 60 №10	15 мая 2019 2 урок	Выдано
стр. 281-285, читать	20 мая 2019 4 урок	Выдано
подготовка к к/р	31 мая 2019 5 урок	Завершено
стр. 136, №13, 14, 15	30 мая 2019 1 урок	Выдано

Hisobotlar

Standart vedomostlarni va ta'lim muassasasining hisobotlarini hamda qo'shimcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan to'liq statistika. Oldin qo'lda to'ldirilgan maktab hisobotlari endi avtomatik ravishda shakllantiriladi. Barcha ma'lumotlar haqiqiy vaqt rejimida yangilanadi.

№	Фамилия, Имя	Первая	Вторая	Средняя оценка по предмету	Итоговая оценка	Итоговая оценка по предмету	Ср. балл
1	Абдулов И.	4	4	4	ОСР	5	4
2	Алимов А.	4	4	4	4	4	4
3	Рабаданов А.	4	4	4	4	5	4
4	Накилов А.	3	4	4	4	3	4
5	Каримов Т.	4	4	4	4	5	4
6	Мазоров Р.	4	4	4	4	4	4
Средний балл по предмету		3,83	4	4	4	4,33	4
% уч. зн. по предмету		83,33	100	100	100	83,33	100
СОУ (%) по предмету		59,33	64	64	64	77,33	64

Ota-onalarga

O'quvchining kundaligi

Elektron kundalik - bu haqiqiy vaqt rejimida har qanday ta'lim axborotiga kirishdir. Farzandingizning darslar jadvaliga kiritilgan o'zgartirishlarni, joriy va yakuniy yutuqlarini kuzatib boring.

Понедельник, 4 марта 2019

Алгебра
1 урок

п

- Подготовить упр. 1, 2
- Подготовить упр. 3, 4

Геометрия
2 урок

4

- пар. 4, кк. с. 1 (1-3)

Ин.яз
3 урок

3

- С. 67 №8

Информатика
и ИКТ
4 урок

- стр. 26 задача №6

География
5 урок

2

- пар. 42, кк. с. 7

Uy vazifalari

Farzandingizning uy vazifalarini nazorat qilish va bajarilishini kuzatib borish uchun foydali vosita.

Понедельник, 4 марта 2019

Алгебра
1 урок

п

- Подготовить упр. 1, 2
- Подготовить упр. 3, 4

Геометрия
2 урок

4

- пар. 4, кк. с. 1 (1-3)

Информатика
и ИКТ
4 урок

3

- С. 67 №8

География
5 урок

2

- стр. 26 задача №6

- пар. 42, кк. с. 7

Muloqot

Kundalik - bu muloqot uchun yopiq va zamonaviy muhitdir. Tematik forumlar yaratish, tadbirlardagi fotosuratlar bilan almashinish, qulay vaqtda har qanday ota-ona yoki o'qituvchi bilan bog'lanish mumkin.



O'quvchilarga

Kundalik daftari

Kundalik qog'ozli jurnal va undan ortiq bo'lgan masalalarni oson hal qiladi: darslar jadvali, uy vazifalari, qo'yilgan barcha baholar, dars jarayonlarida ishlatiladigan materiallar, o'rtacha ball, o'tilgan va kelasi darslar mavzulari, o'qituvchining sharhlari.

Понедельник, 4 марта 2019

Алгебра 1 урок		<ul style="list-style-type: none"> ● Подготовить упр. 1,2 ● Подготовить упр 3,4
Геометрия 2 урок		<ul style="list-style-type: none"> ● пар 4, к.к. с. 1 (1-3)
Ин.яз 3 урок		<ul style="list-style-type: none"> ● С.67 №8
Информатика и ИКТ 4 урок		<ul style="list-style-type: none"> ● стр 26 задача №6
География 5 урок		<ul style="list-style-type: none"> ● пар 42, к.к. с. 7

Portfolio


Kundalik dagi shaxsiy sahifangizni osongina portfolioga aylantirish va yutuqlaringiz haqida barchaga aytib berish mumkin. Bunda sizga quyidagilar

yordam beradi: shaxsiy blog va eslatmalar yaratish va bezashdagi tasavvurlaringiz, shaxsiy materiallar va raqamli gramota, diplomlar uchun fayllar, yangiliklar devori va boshqalar...



Muloqot

Kundalik da quyidagilarni amalga oshirish osonroq: boshqa maktab o'quvchilari bilan muloqot qilish, maktabingizda to'garaklar yaratish, uni olib borish yoki faqatgina tematik to'garaklarda qatnashish, sinfning tadbirlari va yangiliklarini muhokama qilish, maktab hayotidagi fotosuratlarini boshqalar bilan baham ko'rish.



Davlat organlari

Statistik ma'lumotlarini to'plash Tizimdagi quyi tashkilotlardan ishning asosiy parametrlari bo'yicha haqiqiy vaqt rejimida Excel dasturiga tushirish imkoniyati bilan bir qator statistik hisobotlarni olish.

Регион отчета

Ташкент ▼

Яшнабадский район ▼

Общеобразовательное учрежден ▼

Школа № 206 ▼

Школа № 151

Школа № 206

Boshqaruv yoki ta'lim bo'limining Vakolatxonasi Ta'lim boshqaruv organining biznes kartasi: administratsiya xodimlari, aloqa uchun ma'lumotlar, yangiliklar, huquqiy va boshqa ommaviy hujjatlar, quyi tashkilotlarning tashkiliy tuzilmasi.

Министерство народного образования

Профиль Структура Люди Документы Форум Обратная связь

Об организации

Название	Министерство народного образования
Описание	Министерство народного образования - государственный орган, занимающийся вопросами в сфере образования. В его полномочия входит осуществление следующих функций: - разработка прогнозов развития образовательной системы и ее контрольных звеньев совместно с заинтересованными госкомитетами и ведомствами; - установление требований для школьного, общего среднего, дошкольного и внешкольного образования, переподготовки педагогов и повышения их квалификации; - осуществление научно-методического руководства воспитательным и учебным процессом в учебных учреждениях; - внедрение государственных стандартов образовательной деятельности, разработка и утверждение программ преподавания и учебных планов по фундаментальным, общепрофессиональным и социально-гуманитарным дисциплинам. Согласно данным, представленным на официальном сайте Министерства народного образования, в его полномочия также входит определение порядка выпуска учебно-методических документов, создание и внедрение передовых педагогических технологий и методик обучения. Задачи Министерства народного образования Главной задачей МНО является реализация единой политики, направленной на развитие и повышение качества образования.

Страницы

- ОСНОВНЫЕ ПОК
- БОРЬБА С КОРР
- ИКТ В ОБРАЗОВ
- НОРМАТИВНЫЕ

Руководство

- Шерматов Шериф
Начальник, Сур
- Умаров Алишер
Зам. начальника
- Джуралов Ибрагим
Зам. начальника
- Кенжаев Дилшод
Зам. начальника

Xabardor qilish

Kundalik ga ota-onalarga, o'quvchilarga yoki faqat ta'lim muassasasining quyi tizim rahbariyatiga rasmiy ma'lumot bilan shaxsiy xabarlarini ommaviy yuborish. Muhim hujjat yoki ta'lim sohasidagi tadbir haqida xabar berishning tez va qulay usuli.

Новая запись для:

Добавьте, кому отправить

УНО Самаркандской области

УНО Андижанской области

УНО Бухарской области

Прошу подготовить промежуточную отчетность по успеваемости учащихся подконтрольных школ за 2 четверть.]

Отмена Отправить

Yordam ko'rsatish uchun.



Ta'lim muassasalarini boshqarishda axborot tizimlaridan samarali foydalanish.

Onlayn ta'lim platformalari (LMS - Learning management systems) - bilim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun mo'ljallangan videodars, ma'ruza materiallari, taqdimot, kitob kabi o'quv materiallari majmuasidan iborat muloqot rejimida ishlay oladigan inson-mashina majmuasi yoki masofaviy ta'lim shakli.

Learning (o'qitish) - LMS yordamida elektron kurs yoki o'quv materiallarining yagona bazasini yaratish mumkin. Bunday baza mavzu bo'yicha shakllantirilgan bilimlar omboridir.

Management (boshqaruv) - ta'limni administrator (yoki kursni tashkil etuvchi o'qituvchi) boshqarib boradi. U ta'lim oluvchilar uchun kurs, topshiriq va testlarni belgilab beradi hamda uy vazifalari bajarilishini nazorat qilib boradi.

System (elektron tizim) - LMS o'qituvchining o'rniga har bir ta'lim oluvchi berilgan topshiriq yoki testni qancha vaqtda va qanday topshirganini tekshirib, qayd etib boradi. Hisobotlar orqali ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini kuzatib borishi ham mumkin.

Ta'limni boshqaruv tizimlari (LMS) - elektron ta'lim dasturlarini tashkil etuvchi, amalga oshiruvchi hamda o'quvchilarning o'zlashtirish natijalari ustidan nazorat olib borish va ularni saqlab qo'yish imkoniyatini beruvchi onlayn platforma.

LMS platformalar 3 turga bo'linadi:

1. Bulutli platformalar
2. Serverga asoslangan LMSlar
3. CMS bilan integratsiyalashgan LMSlar

Bulutli platformalar. O'quv kursining materiallari LMSning bulutli platformalarida veb-xizmatni taklif etuvchining server kompyuteriga joylashtiriladi. LMSning bu turini ta'lim muassasasi yoki tashkilotning server kompyuteriga o'rnatib bo'lmaydi. LMSning bulutli platformalari veb-xizmat (masalan, pochta xizmati kabi) prinsipi asosida ishlaydi, ya'ni veb-xizmat taklif etilgan manzil orqali ro'yxatdan o'tgandan keyin, o'quv kurslarini yaratish mumkin.

TA'LIM MUASSASALARI UCHUN MO'LLJALLANGAN BULUTLI LMS.



Schoolology Google Drive, Microsoft OneDrive, Blackboard Collaborate.




Moodle,

PowerSchool,

Evernote.

Serverga asoslangan LMSlar. Serverga asoslangan LMSlar tashkilot yoki ta'lim muassasasining serveriga o'rnatiladi. Bu esa foydalanuvchilarga tizimga korporativ login va parol yordamida kirish imkonini beradi. Barcha ma'lumotlar tashkilot yoki ta'lim muassasasi server kompyuterida saqlanadi. Buning uchun esa LMSni o'rnatish, sozlash, uning tashkilot yoki ta'lim muassasasi dasturiy ta'minotlari bilan integratsiyasini ta'minlash lozim. Asosan, ta'lim muassasalari va o'quv markazlarida foydalaniladi.



CMS bilan integratsiyalashgan LMSlar. LMS funksiyalarini bajaruvchi maxsus dasturlar CMSga qo'shiladi va CMSning imkoniyatlarini kengaytirib beradi. CMSning tarkibida alohida o'quv kurslar bilan ishlovchi qism xizmat qiladi. Bunday tizimlar onlayn maktab va kurs ochishni xohlovchilar uchun qulay hisoblanadi

LMS tizimlarining asosiy vazifalari.

- o'quv kontentlari bilan ishlash - kurs yaratuvchi o'qituvchilar tomonidan elektron o'quv materiallari (matnli, audio, video va boshqalar)ni yaratish va kiritish; elektron materiallarni import/eksport qilish; elektron kutubxona tashkil etish; mualliflik dasturlari yordamida yaratilgan elektron o'quv resurslarini yuklash;

- o'quv jarayonini boshqarish - tizim foydalanuvchilari (kurs yaratuvchi o'qituvchilar, o'quvchilar va boshqalar)ni ro'yxatdan o'tkazish; sinflar yaratish va o'quvchilarni sinflarga birlashtirish; ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olish muhitini yaratish; har xil ijtimoiy so'rovlarni tashkil etish; foydalanuvchilarni o'quv kurslardan chetlashtirish;

- baholash - nazorat topshiriqlari (amaliy mashg'ulot topshiriqlari, savol va testlar)ni kiritish; ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishi va bilim darajasi monitoringini olib borish; sertifikatlar (diplomlar) berish;

- foydalanuvchilar o'rtasida o'zaro aloqa - ta'lim oluvchi va o'qituvchilarning o'zaro individual yoki guruh bo'lib, hamkorlikda ishlashini tashkil etish; ta'lim oluvchilarning o'zaro yoki o'qituvchilar bilan muloqotini chat, forum, videokonferensiya orqali tashkil etish; o'quv jarayoniga taalluqli e'lon, xabar yoki yangiliklarni ommaviy tarzda uzatish;

LMS tizimlarining asosiy vazifalari (1-rasm)

- statistika - tizim foydalanuvchilarining faoliyati haqidagi ma'lumotlarni qayd etib borish; maxsus grafikalar orqali tizimdagi faol foydalanuvchilar haqidagi ma'lumotlarni olish.

LMS tizimining afzalliklari.

- zamon bilan hamnafasligi – elektron kurs foydalanuvchilari, xususan, o'qituvchi va o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini eng yangi zamonaviy texnologiya va standartlarga muvofiq rivojlantirib boradilar. Bunda elektron o'quv kurslar materiallarini tezkorlik bilan o'z vaqtida yangilab turish imkoniyatlari mavjud;

- ta'lim olishning tengligi – o'qitish ma'lum bir ta'lim muassasasidagi o'qitish sifatiga bog'liq bo'lmaydi;

- bilimlarni baholashning obyektiv mezonini belgilash imkoniyati – o'quv jarayonida o'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni baholashning aniq mezonlarini belgilab olish mumkin;

- tajriba almashish – muloqot qilish, xabarlar almashish uchun chat, blog, forum va konferensiyalardan foydalanish mumkin;

- statistika – darsga qatnashish, o'zlashtirish kabi ma'lumotlar tizimda qayd etib borilganligi uchun, o'qituvchi xohlagan paytda kerakli shakldagi hisobotni olishi mumkin.

Pedagog kasbiy kompetentligini elektron ta'lim muhitida, ya'ni LMS tizimi ommaviy ochiq onlayn kurslar imkoniyatidan foydalanib rivojlantirishga samaradorligining ikki jihatini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- ijtimoiy samaradorlik;
- iqtisodiy samaradorlik.

Ijtimoiy samaradorlik. Ijtimoiy samaradorlik pedagogning psixologik va ijtimoiy holatidan kelib chiqadi va fikrimizcha quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Tanlash imkoniyatining mavjudligi. Zamonaviy ta'lim tizimida kompetentli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu pedagogga tanlash imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

2. "Stress" holatlarning minimallashtirishiga erishish. Pedagog oila davrasidan va o'z jamoasidan ajralmagan holda ta'limni tashkil qilishi mumkin, bunda jarayon ortiqcha qog'ozbozliklardan xoli ekanligi.

3. Vaqtdan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi va vaqtni to'g'ri taqsimlay olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

4. Xalq ta'limi tizimida va mutaxassislik fanlariga doir axborot resurslari hamda ma'lumotlar bazasini izlashga doir muammolar bartaraf etiladi. Onlayn ta'lim orqali, professional professor-o'qituvchilarning audio, video va vizual materiallari o'zlashtiriladi.

5. Tinglovchilar va professor-o'qituvchilarning o'z-o'zini baholash, o'z bilim, malaka va ko'nikmalarini taqqoslash imkoniyati yaratiladi.

Umuman olganda elektron muhit orqali tinglovchilarning kompetentligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Maktabgacha ta'limni boshqarishning Boshqarishda axborot tizimi (EMIS) yordamida barcha turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari, xodimlari, mavjud bolalar soni, faoliyat olib borayotgan mutaxassislar haqida ma'lumotlarni kiritadi. Shu orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarning ota-onalari ta'lim tashkilotlarni manzili, undagi bo'sh joy, muxtaxassislari haqidagi ma'lumotga ega bo'ladilar.

Ota-onalar farzandlarini onlayn navbatga qo'yish jarayonida Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDO) organlari bilan onlayn ulangan bazadan farzandining tug'ulganlik guvohnomasi seriya va raqamini kiritib farzandi haqidagi ma'lumotlar olish imkoniyati yaratilgan. Kelgusida xodim va tarbiyalanuvchilarning sog'lig'i haqida onlayn Sog'liqni saqlash vazirligining bazasidan olish va bashqa idoralarning axborot tizimlaridan ma'lumotlarni shakllantirish ishlari olib borilayotganini qayd etish lozim.

I. OPEN EMIS dasturining amaliyotga tadbiiq etilishdan maqsadi:

1. Korrupsiyani yo'q qilish.
2. Qog'ozbozlikning oldini olish.
3. Markazlashgan avtomatlashtirilgan tizimga o'tish.
4. Statistik ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlash.

II. OPENEMIS dasturining vazifalari:

- Ota-onalar farzandlarini onlayn navbatga qo'yish va joylashtirish.
- MTTlarga tabiiyalanuvchilarni onlayn qabul qilish.
- MTTlar faoliyatini nazorat qilish.
- Tizimga xodimlar va bolalarning ma'lumotlarini qamrab olish.

OPEN EMIS tizimi maktabgacha ta'lim vazirligining rasmiy internet sayti va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portallari bilan API (Application Programming Interface) bog'langan tizim.

OPEN EMIS tizimi barcha tashkilotlarni to'g'ridan-to'g'ridan ta'lim tashkilotlari yoki maktabgacha ta'limi bo'limlari tomonidan tez fursatda qabul qiladi va darhol tizimga bog'langan saytlarda namoyish qiladi.

1- Topshiriq. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YAIDXP) da ishlash

Yagona portal orqali interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 728-sonli qarorida keltirilgan "O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risida" gi nizomga muvofiq ro'yxatdan o'tish va avtorizatsiya qilish jarayonlaridan o'tgan foydalanuvchilar uchun amalga oshiriladi.

Yagona portal maqsad va vazifalari:

Yagona portal davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan, shu jumladan pulli asosda ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan erkin foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi.

Yagona portalning asosiy vazifalari:

- foydalanuvchilarga davlat organlariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish uchun imkoniyat berish;
- foydalanuvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi boshqa loyihalar bilan integratsiyalash;
- foydalanuvchilarning davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;
- davlat organlariga murojaat qilinganda foydalanuvchilar uchun byurokratik to'siqlarni qisqartirish va ularni bartaraf etish;
- "Elektron hukumat" tizimini yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda ko'maklashish.

Yagona portal orqali interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish

Yagona portal, foydalanuvchilarga davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan bir tomonlama, ikki tomonlama va tranzaksion shakldagi interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Interaktiv davlat xizmatlari Yig`ma reestri (keyingi o`rinlarda Yig`ma reestr deb ataladi) 2013-2020-yillarda O`zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish kompleks dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtirish bo`yicha Respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Yig`ma reestrda kiritilgan interaktiv davlat xizmatlari majburiy tartibda Yagona portal orqali berilishi kerak.

MY.GOV.UZ ga kirish uchun OneID (yagona identifikatsiya tizimi) da tasdiqlangan akkauntga ega bo`lsangiz ID.EGOV.UZ orqali kirish tugmasini bosib kirishingiz mumkin. Agar akkauntga ega bo`lmasangiz ro`yxatdan o`tish tugmasini bosib ID.EGOV.UZ dan ro`yxatdan o`ting.

Elektron hukumat — Barcha ham „ichki“, ham „tashqi“ aloqalar va jarayonlar majmuasi bo`lib, tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan quvvatlanib va ta`minlanib turadigan hukumat. Kommunikatsiya tarmoqlari (shu jumladan Internet) orqali axborotga ishlov berish, uni uzatish va tarqatishni elektron vositalari asosida davlat boshqaruvini tashkil qilishni, davlat hokimiyati organlarini barcha bo`g`inlari tomonidan fuqarolarning barcha toifalariga elektron vositalar bilan xizmatlar ko`rsatish, o`sha vositalar yordamida fuqarolarga davlat organlarining faoliyati haqida axborot berish. «Elektron hukumat» tushunchasi 1990-yillarning boshida paydo bo`lgan, lekin amaliyotga so`nggi yillardan boshlab tatbiq qilina boshladi. Elektron hukumatni ishlab chiqish bilan birinchi galda AQShda va Angliya, hamda Italiya, Norvegiya, Singapur, Avstraliya va ayrim boshqa davlatlar (Fransiya, Germaniya, Katar, BAA va h.k.) shug`ullandilar. Elektron hukumatning uch asosiy rivojlanishi tizimi ajratiladi:

- hukumat- aholi (G2C);
- hukumat — biznes (G2B);
- hukumat — hukumat (G2 G).

O`zbekistonda ham elektron hukumat barpo qilish ishlari boshlab yuborilgan. Jahon tajribasiga mavjud amaliyotga ko`ra, u ikki o`zaro bog`langan, lekin funksional jihatdan mustaqil qismlardan, Hukumat Intranetidani va tashqi infratuzilmadan tarkib topgan. Hukumat Intraneti axborot tizimining ichki infratuzilmasini qamrab oladi, u davlat tuzilmalari tomonidan davlat korporativ vazifalarini amalga oshirishdagi o`zaro

munosabatlarda foydalaniladi. Tashqi infratuzilma, davlatni fuqarolar (G2C) va tashkilotlar (G2B) bilan o`zaro ishlashini ta`minlaydigan ommaviy axborot infratuzilmasini qamrab oladi.

Interaktiv davlat xizmatlari

Interaktivlik tushunchasi. Interaktivlik deganda biz, faqatgina, biz o`rganayotgan fan kesimida texnik vositalar, kompyuter, ularning dasturlari hamda foydalanuvchilar orasidagi o`rnatilgan muloqatni tashkil etish tushuniladi. Demak, Kompyuter dasturlari shunday yaratilganki, Biz u yordamida kompyuter bilan muloqat o`rnatamiz.

Umuman olganda interaktivlik bu muloqat tizimini tashkil etish bilan bog`liq. Ya`ni, maqsadga ko`ra tizim elementlari orasidagi axboriy ma`lumotlar almashinuvi. Ushbu tushuncha axborot nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiya tizimlari, sotsiologiya va boshqa sohalarda qo`llaniladi.

Interaktiv xizmatlar tushunchasi. Interaktivlik orqali foydalanuvchi moddiy, ma`naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axboriy va ishlab chiqarishning turli manbalaridan ko`riladigan manfaat mavjud bo`lsa, unga interaktiv xizmat qilingan deb tushuniladi. Ya`ni, kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchiga interaktiv xizmat tashkil etilgan deb tushuniladi.

Internet tarmog`i orqali ko`rsatiladigan interaktiv xizmat turlari. Hozirgi vaqtda, Hukumatimiz tomonidan interaktiv xizmatlarni shakllantirish, tashkil etish va ularni boshqarishga katta e`tibor berilmoqda. Interaktiv xizmatlarni tashkil etishning eng tez va yaxshi yo`li, bu, ularni internet tarmoqlari orqali amalga oshirish hisoblanadi. Internet tarmog`i orqali ko`rsatiladigan interaktiv xizmat turlariga quyidagilar kiradi:

Transport vositalarning harakatlanish jadvali. Respublikadagi transport vositalarini harakatlarini ifodalash jadvali bir nechta saytlarda berilgan. Foydalanuvchi saytdan o`ziga maqul transport vositalarini qatnovi jadvallari haqidagi ma`lumotlarni topadi. Quyida ushbu veb sahifalarni keltirilgan:

<http://www.orexca.com> - sayyohlar uchun mo`ljallangan veb sahifa;
<http://www.tgpt.uz> - Toshkent shahridagi transport vositalari haqidagi veb sahifa;

<http://www.goldenpages.uz/> - O`zbekiston transport qatnovi reys jadvallari sahifasi.

Avia reyslar jadvali. Avia reyslari bo'yicha ma'lumotlar jadvalini aniqlash, ulardan foydalanish uchun <http://uzairways.com> - O'zbekiston havo yo'llari avia kompaniya veb sahifasiga murojat qilinadi. Saytda xalqaro va O'zbekiston miqyosidagi avia qatnov jadvallari keltirilgan.

Temir yo'l transporti qatnovi jadvali. Respublika ichki va tashqi temir yo'l qatnovlari jadvallari va ular haqidagi ma'lumotlarni quyidagi veb sahifalardan topish mumkin.

1. uzrailpass.uz - temir yo'l transport qatnovi jadvali.

2. www.roxanatour.com - Bu sayoxlik firmasi sayti bo'lib, bunda siz xalqaro va O'zbekiston ichidagi temir yo'l qatnovlari va havo yo'llari qatnovi jadvallari va u erda joylashgan mexmonxonalar xaqida ma'lumot va buyurtmalar majmualarini aniqlashingiz mumkin.

Bank xizmati ma'lumotlari va valyuta kurslari. O'zbekistondagi barcha banklar xaqidagi ma'lumotlar va yangiliklar, kunlik valyuta miqdorlari haqidagi ma'lumotlarini quyidagi saytlardan olish mumkin:

www.bank.uz;

www.mikrokreditbank.uz;

www.agrobank.uz;

www.asakabank.com;

www.new.nbu.com;

www.uzpsb.uz;

www.infinbank.com;

www.xb.uz;

www.ipotekabank.uz;

www.csb.uz va hakoza banklar.

Ob havo ma'lumotlari. Respublika barcha viloyatlari va Toshkent shahri hamda xalqaro miqyosda ob - havo haqidagi ma'lumotlarni quyidagi, O'zbekistonda yaratilgan veb sahifalardan aniqlash mumkin. ob-havo.uz; www.pogoda.uz ; www.meteoprog.uz. Ob-havo prognozi bo'yicha eng to'liq ma'lumotlarni www.meteoprog.uz veb sahifasidan olish mumkin. Sahifa dizayni ham foydalanuvchilar uchun juda qulay.

Yangiliklar. O'zbekiston Respublikasida faoliyatlari dorasida olib borilayotgan asosiy yangiliklar majmuasini uza.uz, gov.uz hamda desk.uz veb saytlari orqali topish mumkin. Ushbu veb sahifalarda Davlat boshqaruv va xo'jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlari, ular faoliyati haqidagi yangiliklar, xabarlar mavjud.

Tele va radioeshittirish dasturlari. O'zbekiston milliy teleradio kompaniyasi ma'lumotlari va teledasturlar jadvalini hamda ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni quyidagi veb sahifalardan olishingiz mumkin. www.mtrk.uz;

Ish o'rinlar birjalari. Respublika doirasida bo'sh ish o'rinlarini topish, aniqlash va muloqat o'rnatish quyidagi veb sahifalar orqali amalga oshirilishi mumkin. www.myjob.uz, www.vakansi.uz bu saytlardan siz ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlarni va Siz, o'zingiz haqingizdagi ma'lumotlarni to'ldirib jo'natishingiz va javob olishingiz mumkin.

Sport yangiliklari. Respublika va xalqaro sport musobaqalari, ularning o'tkazilish jadvallari va holatlari haqidagi ma'lumotlarni quyidagi veb sahifalardan qidirish mumkin: www.uff.uz; www.the-uff.com; www.paxtakor.uz; www.bunyodkor.uz; www.fifa.com. Bu saytlardan O'zbekiston futboli va jaxon futboli yangiliklarini olishingiz mumkin. www.allsportsites.net bu saytdan esa sport turlari reytingi yangiliklari haqidagi ma'lumot olishingiz mumkin. sportal.uz sport yangiliklari

Davlat boshqaruv va xo'jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar. Interaktiv davlat xizmati - idoralar tomonidan idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ko'rsatiladigan xizmatlar. Interaktiv davlat xizmati quyidagi shakllarda ko'rsatiladi:

• umumiy foydalaniladigan axborotni e'lon qilish (tarqatish) - tegishli axborot tizimlari, shu jumladan Internet orqali davlat axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha xizmatlarni realizatsiya qilish;

• bir tomonlama o'zaro hamkorlik - elektron shakldagi hujjatlarning har bir formulalaridan foydalanish imkoniyatini berish;

• ikki tomonlama axborot ayirboshlash - so'rov bo'yicha qabul qilish, tahlil (ko'rib chiqish) va javob yuborishni o'z ichiga oladigan idora xizmatlari (buyurtmanomalar va murojaatlarni taqdim etish, ularni qayta ishlash natijalarini taqdim etish va/yoki berish);

• elektron shakldagi ma'lumotlar to'liq ayirboshlanishini amalga oshirish, shu jumladan xizmatlar ko'rsatish va ularga haq to'lash shaklida ko'rsatilishi mumkin.

Bugungi kunda davlat organlarining veb-saytlari orqali aholiga interaktiv davlat xizmatlari asosida **384** turdagi interaktiv xizmatlar ko'rsatiladi. Quyidagi veb sahifalardan Davlat boshqaruv va xo'jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlari, ular faoliyati haqidagi yangiliklar, xabarlarini topish mumkin.

- O'zbekiston Respublikasi hukumatinnig portali. <http://www.gov.uz>
- O'zbekiston Respublikasi xukumatinnig portali. <http://www.aci.uz>

Onlayn ta'lim platformalari - foydalanuvchilarga raqamli sinflarga kirishni ta'minlaydigan o'quv menejmenti tizimlari (LMS) turlari. Ushbu virtual kurslar ko'p jihatdan oflayn mashg'ulotlarga o'xshaydi: o'qituvchi video, rasm, matn, audio va PDF-fayllar orqali qiziqarli o'quv tajribasini taqdim etadi.


Onlayn ta'lim platformalari - foydalanuvchilarga raqamli sinflarga kirishni ta'minlaydigan o'quv menejmenti tizimlari (LMS) turlari. Ushbu virtual kurslar ko'p jihatdan oflayn mashg'ulotlarga o'xshaydi: o'qituvchi video, rasm, matn, audio va PDF-fayllar orqali qiziqarli o'quv tajribasini taqdim etadi.



www.khanacademy.org



www.onlinedu.uz



www.Coursera.org



www.udemy.com

O'zbekistonda, ko'plab ta'lim muassasalarida virtual ta'lim muhiti sifatida aynan LMS dasturiy majmuasi foydalanib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori asosida "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi (onlinedu.uz) yaratildi va xalq ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy malakasini oshirish jarayonida foydalanish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom" 25-son Qarori asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimi tartibga solindi.

XALQ TA'LIMI XODIMLARINING MALAKASINI OSHIRISHDA INNOVATSION QADAM – HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIISH

Hayot davomida ta'lim olishning afzalliklari:


- O'z kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish ish joyidagi shaxsiy samaradorlikni oshiradi;
- O'z kasbiy ehtiyojlari asosida bilimlarni o'zlashtirish, pedagogik mahoratini oshirish va psixologik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish ta'limda bo'layotgan islohotlar va o'zgarishlar haqida vaqtida xabardor bo'lishi va kasbiy yuksalishiga yordam beradi;
- hayot davomida ta'lim olish xodimlarga o'z kasbiy sohalaridagi tendensiyalardan xabardor bo'lishga yordam beradi, bu esa raqobatbardosh mutaxassis bo'lish uchun muhimdir.

"UZLUKSIZ KASBIY TA'LIM" MAXSUS ELEKTRON PLATFORMASI

rahbar va mutaxassislar kamida 30 soat (15 kredit), pedagoglar 36 soat (18 kredit) malaka oshirishdan o'tgandan keyin malaka oshirganlik to'g'risidagi elektron sertifikat olishi;




Ushbu platforma foydalanuvchilari



Uzluksiz kasbiy rivojlantirishning maqsadi

Kasbiy va pedagogik mahoratining doimiy ravishda o'sib borishi

- lavozimi
- mutaxassisligi
- dars beradigan fani



kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalarini muntazam ravishda yangilab borilishi

- ilg'or pedagogik
- axborot texnologiyalari
- o'qitishning interaktiv usullari



- davlat ta'lim standartlari
- davlat ta'lim talablari


sohaga old qonunchilik bilan muntazam tanishtirib borishdan iborat.



Uzluksiz kasbiy rivojlantirishning asosiy vazifalari

xodimlarning doimiy kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadigan ta'lim muhitini yaratish;

xodimlarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi asosida kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish;



mustaqil fikrlash ko'nikmalarini singdirish va xodimlarning qobiliyatini rivojlantirish hamda yangi bilimlar berish orqali o'z ustida mustaqil ishlash va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;

ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;

umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirishning asosiy manbai sifatida xodimlarning kasbiy rivojlanishini, tashabbuskorligini, ilmiy tadqiqotlarga intilishini va ijodiy mahoratini rag'batlantirish

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish shakllari

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish;

masofaviy ta'lim;

dual ta'lim;

mustaqil ta'lim;


malaka oshirishning muqobil shakllari.

Malaka oshirish kurasi dasturini to'liq o'zlashtirgan tinglovchilarga kursni tamomlagan ta'lim muassasasi tomonidan davlat namunasidagi elektron generatsiya qilingan va elektron imzo yoki uning muqobil shakldagi hujjati tasdiqlovchi vositalar (QR-kod, shtrix-kod) bilan tasdiqlangan hujjat (sertifikat) "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali beriladi.

«Uzluksiz kasbiy ta'lim» platformasiga kirish

Barcha turdagi gadjetlar orqali tas-ix tizimida ishlash imkoniyati: bir vaqtning o'zida turli gadjetlar orqali kirish, ixtiyoriy operatsion tizimdan va istalgan turdagi (Goole Chrome, Yandex, Internet Explorer) brauzer dasturidan foydalanish imkoniyatlari mavjud.


«Uzluksiz kasbiy ta'lim» platformasidan ro'yxatdan o'tish



Pedagog kadrlar kompyuter yoki telefon qurilmalari orqali shaxsiy raqam va o'zlariga qulay bo'lgan **8 ta** (lotin alifbosi va raqamlar) belgidan kam bo'lmagan parol kiritiladi. Tasdiqlash uchun parolni qayta kiritilgandan so'ng telefon raqamga sms xabar yuboriladi. Shu tarzda pedagog xodimlar **onlinedu.uz** platformasidan ro'yxatdan o'tishadi.

Afzalligi: Foydalanuvchi shaxsiy raqami orqali parolni qayta tiklash imkoniyati mavjud

Tinglovchi tomonidan kelgusi yilda malaka oshirish turini tanlash



Ushbu platformaning yana bir avzallik tomoni shundan iboratki xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritadigan pedagog kadrlar kelgusida malaka oshirishning variativ (onlayn yoki oflayn) shakllaridan birini tanlash (o'zlari tomonlaridan amalga oshirish) imkonini beruvchi Reyestr bo'limi kiritildi. Reyestr - tizimlashtirish, hisobga olish shakli bo'lib, bunda tinglovchi mustaqil ravishda kelgusi yildagi malaka oshirish muassasasi va malaka oshirish shaklini (onlayn yoki oflayn) tanlash imkoniyatiga ega.

Tinglovchining shaxsiy kabineti.

Malaka oshirish kurslari ishtirok etuvchi barcha ishtirokchilar uchun tinglovchining shaxsiy kabineti ochiladi. Kiritiladigan ma'lumotlar foydalanuvchining pasport ma'lumotlari va mehnat faoliyati asosida shakllantiriladi, zarur bo'lsa foydalanuvchi o'zining shaxsiy ma'lumotlarini o'zgartirish (taxirlashi) mumkin bo'ladi. Shuningdek, foydalanuvchining o'zlashtirgan dars soatlari asosida jamlab boriladigan kredit ballari foydalanuvchilarga ko'rinib turadi.

Malaka oshirish kurslari onlayn platforma orqali boshlanganda tinglovchiga kasbiy kompetensiyalar bo'yicha diagnostika testi taqdim etiladi. Ehtiyojlarga asoslangan kurslarni tavsiya qilish maqsadida malaka oshirish kursini boshlashdan oldin kasbiy kompetensiya bo'yicha tinglovchining boshlang'ich bilim darajalari aniqlanadi va baholanadi.

Malaka oshirish kurslarini boshlash diagnostika testi.


Jumladan, fan o'qituvchilari **7 ta kompetensiya** bo'yicha **18 kredit**, fan metodistlari **6 ta**, maktab direktorlari **8 ta kompetensiya** bo'yicha eng kamida **15 kredit** to'plashlari kerak bo'ladi.

Diagnostika testi natijasiga ko'ra foydalanuvchining qaysi kompetensiyasida past ko'rsatkich mavjud bo'lsa, shu kompetensiyalar bo'yicha kurslar taklif etiladi. Tinglovchiga har bir kompetensiya tarkibida bir nechta mualliflik kurslari mavjud ekanligini hisobga olgan holda, eng ko'p ijobiy baholangan kurslar tavsiya etiladi. Har bir lavozim bo'yicha ega bo'lishi lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar asosida kreditlar belgilanadi.

100 ballik baholash tizimida olingan diagnostika test natijasi (qizil rangda) har bir kompetensiya bo'yicha raqamli, o'rgimchak to'ri yoki chiziqli grafik ko'rinishda hosil bo'ladi. Lavozim bo'yicha to'planishi kerak bo'lgan minimal


kredit miqdori hamda malaka oshirish kurslaridan yig'ilgan kredit miqdori ham shaxsiy kabinetda ko'rinadi.

Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi.



Diagnostika testi natijasida foydalanuvchining kasbiy kompetentligi (ko'nikmasi)da past ko'rsatkich mavjud bo'lsa, shu kompetensiyalar bo'yicha kurslar taklif etiladi. Tinglovchiga har bir kompetensiya tarkibida bir nechta mualliflik kurslari mavjud ekanligini hisobga olgan holda o'z ehtiyojlarini to'ldirishi va belgilangan kreditlarni to'plashi mumkin.

Ehtiyojga asoslangan kurslar.




Malaka oshirish kurslarida diagnostika test natijasining trayektoriyasiga qarab, tinglovchilarning ko'nikmalariga mos bo'lgan mualliflik kursi uchun kurs mundarijasi bo'lib, kurslarni o'zlariga qulay vaqt va kunlarida o'qishlari mumkin bo'ladi. O'zlashtirilmagan mavzular yopiq holatda bo'lib, tinglovchi kurs bo'yicha fikr bildirishi, qo'shimcha kurslarni tanlash imkoniyatlari ham yo'lga qo'yilgan.

Mavzu bo'yicha ma'ruza, videodars, taqdimot va adabiyotlar.

Tinglovchi taqdim etilgan kurslar mavzular mazmunini qay darajada o'zlashtirayotganini nazorat qilish maqsadida videodarsning ma'lum vaqt oralig'larida test topshiriqlari berib boriladi.


Video darsni ko'rish paytida nazorat topshiriqlarini bajarish.



Tinglovchilar har bir mashg'ulot so'ngida o'z bilim darajasini bilishlari uchun test topshiriqlari berilgan. Topshiriqni bajarishda yetarli ball to'play olmagan taqdirda ma'lum vaqtdan keyin qayta topshirish mumkinligi ko'rinadi. So'ng topshiriq natijalari to'g'risida umumiy ma'lumot chiqadi.

Malaka oshirish kursi tinglovchilari muallif tomonidan yaratilgan kurslarni mazmun-mohiyatini tahliliy va tanqidiy ko'rib chiqish orqali o'zlarining taklif, tanqidiy fikr va mulohazalarini berish imkoniga egadirlar.

So'rovnomalarda ishtirok etish, muallifga yozish va baholash.



Muallif tomonidan taklif etilgan kurslar tinglovchilar tomonidan fikr mulohazalar berish asosida tashkil etilgan.

Tinglovchilar yaratilgan kurslarni mazmun-mohiyatini tahliliy va tanqidiy ko'rib chiqish orqali o'zlarining taklif, tanqidlarini va fikr-mulohazalarini berish imkoniga ega.


Har bir yaratilgan kurs tinglovchilar tomonidan 0-5 gacha baholash tizimi orqali baholanadi. Umumiy baholangan natijaning o'rtacha koeffitsiyentiga qarab yangi kurslar tuzish uchun mualliflar bilan shartnomalar tuziladi.

Tinglovchi tomonidan tanlangan malaka oshirish kurslari muvaffaqiyatli yakunlanganidan so'ng davlat namunasidagi elektron shakldagi sertifikat taqdim etiladi. Sertifikatni yuklab olish hamda haqqoniyligini tekshirib olish imkoniyati mavjud.

Minimum kredit miqdorlari to'planganidan so'ng elektron sertifikat olish.




Har bir tinglovchining shaxsiy portfoliosi.



Har bir tinglovchining shaxsiy portfoliosida malaka oshirish kursi boshlanishi va yakunidagi farq, tinglovchi bilim darajasi grafik ko'rinishda aks etadi. Tinglovchi o'zining portfoliosini kengaytirish va o'zgartirishi mumkin.

Muqobil malaka oshirish shakllaridan kredit to'plash imkoniyati



Tinglovchi kasbiy faoliyati davrida erishgan yutuqlari yordamida muqobil kurslar uchun ajratilgan kredit miqdorlari asosida malaka oshirish uchun kreditlar yig'ishi mumkin. LMS orqali olingan sertifikatlar qatoriga muqobil kurs sertifikatlari qo'yiladi. Hisobga olingan kredit bali ko'rinadi.

VEBINAR platformalarning texnik parametrlar tahlili


Vebinar yoki veb-seminarda barcha foydalanuvchilar o'z ish joylaridan kerakli uskunalar bilan ta'minlangan kompyuterlar orqali ishtirok etishlari mumkin. Vebinar onlayn taqdimotlar (Power Point), savdo-uchrashuvlari, treninglar, saytlarning sinxron namoyishi, video fayllar va tasvirlar, hujjatlar va dasturiy ilovalar (Word, Excel va boshqalar) bilan birga ishlash imkonini beradi. Vebinarlarda bir necha yuzlab ishtirokchilar bir vaqtning o'zida ishtirok etishi va bunda bir yoki bir nechta ishtirokchi vebinar yetakchisi – ma'ruzachi bo'lishi mumkin.

Buning uchun vebinarlarda ishtirok etishni istagan foydalanuvchiga faqatgina internetga ulangan noutbuk yoki naushnik (kolonka) bilan jihozlangan kompyuter yetarli bo'ladi. Agar tinglovchi vebinar paytida audio yoki video-konferensiyada ishtirok etishni istasa, unga mikrofon va veb-kamera kerak bo'ladi.

Vebinarlarni tashkil etish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Vebinar uchun tayyorgarlik ko'rish.
2. Vebinar jarayoni.

3. Natijalar sarhisobi (ishtirokchilarning fikr-mulohazalarini olish, vebinarlarning samaradorligini baholash).



Birinchi bosqich – vebinar uchun tayyorgarlik ko'rish. Vebinar o'tkazishdan oldin tashkilotning rasmiy veb-saytida yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida uning maqsadi haqida asosiy fikrlarni belgilab olish va kichik reklama tashvilotini o'tkazish kerak. Vebinar ma'ruzachisi, mavzusi, boshlanish vaqti va uning davomiyligi albatta ko'rsatilishi kerak bo'ladi.

Vebinarga tinglovchilarni qamrab olish maqsadida ularga xabarni bir hafta oldin yuborish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, uchrashuv boshlanishidan bir kun oldin qisqa mazmundagi eslatmalar yuborish maqsadga muvofiq. Vebinar boshlanishidan bir necha daqiqa oldin ishtirokchilar ro'yxatga olinadi.

Vebinarlarni boshlashdan oldin tovush, veb-kamera, ish stoli, taqdimot sususiyatlarini va boshqalarni sinovdan o'tkazib ko'rish tavsiya etiladi. Bu sinov texnik muammolarning xavfini kamaytiradi va oldindan translyatsiyaning barcha parametrlarini sozlash imkonini beradi.

Vebinar uchun tavsiya etiladigan vaqt davomiyligi 45 daqiqa hisoblanadi. Ushbu vaqt mobaynida tinglovchilar e'tiborini jalb etib turish va ma'ruzadan so'ng yana 15 daqiqa ishtirokchilar bilan savol-javob o'tkazish mumkin.

Vebinarlarning muvaffaqiyati birinchi navbatda ma'ruzachining tarqatma materiallariga bog'liq. Vebinarlarni tashkil etuvchi aksariyat platformalarda ishtirokchini ro'yxatga olish blogida elektron pochta so'rovchi maydon

mavjud. Shuning uchun ta'limiy yoki trening tipidagi vebinarlarni tashkil etishda tarqatma materiallar bilan tanishish va vaqtni tejash uchun uni oldindan uzatish imkoniyati mavjud.

Ikkinchi bosqich – Vebinar o'tkazish. Ishtirokchilar vebinarga har doim ham o'z vaqtida bog'lana olmaydilar. Shuning uchun dastlabki 5-7 daqiqa mobaynida uchrashuvning asosiy maqsadiga o'tmagan ma'qul. Uning o'rniga bu vaqtdan unumli foydalanib aloqa sifatini tekshirish, chat (yozishmalar) almashish jarayonini sozlash kabi tayyorgarlik ishlarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Vebinar jarayonida aksariyat ishtirokchilar chat (yozishmalar) tizimi orqali ko'plab savollar bilan murojaat qiladilar. Shuning uchun vebinar jarayonida albatta yordamchining ko'magiga muhtoj bo'lamiz. U foydalanuvchilarga texnik muammolarni hal qilishda yordam beradi, ulaning savollarini tahlil qilib boradi va ma'ruzachini to'xtatishi yoki vebinar so'nggida savolni eshittirishi mumkin.

Ishtirokchilarga savol bilan murojaat qilish va asosiy qaralayotgan mavzuga oid fikrlarni bilish juda muhim sanaladi. Shunday qilib, tinglovchilar e'tiborini qaralayotgan mavzuga jalb qilish mumkin. Savollar murakkab bo'lmasligi kerak, shuningdek, muhokamani boshqara olish ham talab etiladi. Aks holda mavzudan chetlashib ketish mumkin.

Odatdagi "jonli" uchrashuvlardan farqli ravishda vebinar boshlovchisining tinglovchilarga ta'sir etish imkoniyati kamroq, chunki veb-kamera yordamida noverbal muloqot o'rnatish oson emas. Faqat ekrandagi ovozli va vizual taqdimot bilan ta'sir qilish imkoniyati bor, xolos. Shuning uchun vebinar uchun tayyorlangan taqdimotlarda odatdagi taqdimotlarga nisbatan ko'proq animatsiyalar, vizual axborotlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chatdagi savollarga javob berishda uni mikrofon orqali takrorlash ishtirokchilar tomonidan javobni ko'rish (yoki eshinish) ehtimolini oshiradi. Shuningdek, hech kimda texnik nosozlik tufayli uzilish bo'ldi degan taassurot uyg'onmaydi.

Tinglovchilar e'tiborini ushlab turishning eng muhim omili vebinar tempini saqlash hisoblanadi. Uzoq uzilishga yo'l qo'ymaslik talab etiladi. Chunki uzilishlar auditoriyaga sukunat olib keladi va ishtirokchilarga ma'lumot uzatish kanallarida nosozlik borligi kabi taassurot uyg'otadi.

Uchinchi bosqich – vebinarni yakunlash va xulosalarni umumlashtirish. Ma'ruza tugaganidan so'ng vebinarining asosiy mavzusi yuzasidan muhokama olib borish yoki mavzu yuzasidan tug'ilgan savollarga javob berish mumkin. Savollar bo'lmaganda, yanada muhimroq mavzuni muhokama qilish, oldingi

vebinarlarda berilgan savollar bilan murojaat qilish ham mumkin. Muhimi, birinchi savolni berish va mavzu muhokamasini boshlashdir. Uchrashuvning oxirida esa navbatdagi veb-seminar haqidagi yoki boshqa muhim axborotlarni e'lon qilish mumkin.

Nazorat savollari:

1. "Kundalik" avtomatlashgan tizim haqida nimalar bilasiz?
2. "Kundalik" avtomatlashgan tizimda ish rejalarni joylashtirish ketma-ketligi haqida co'zlang?
3. LMS bu nima?
4. LMSning asosiy maqsadi va vazifalarini ayting?
5. EMIS haqida ma'lumot bering?
6. Qanday interaktiv davlat xizmatlarini bilasiz?

Foydali manbalar

1. <https://lex.uz/docs/-5239538>
2. <https://lex.uz/docs/-5828765>
3. <https://www.edx.org/> - onlayn kurslar.
4. <https://www.coursera.org/> - onlayn kurslar.
5. <https://www.udacity.com/> - onlayn kurslar
6. https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar
7. https://t.me/video_yoriqnoma/56
8. https://t.me/video_yoriqnoma/42
9. <https://www.youtube.com/watch?v=Um2HyGY9sBQ>
10. <https://www.youtube.com/watch?v=W0EVumyg8yE>
11. https://www.youtube.com/watch?v=pUjml_6q_Q&t=248s
12. <https://www.youtube.com/watch?v=xi07ZgtdH64>

3-MAVZU: AKTDAN FOYDALANGAN HOLDA O`QUVCHILARNING TA'LIM OLISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHGA QARATILGAN TA'LIM STRATEGIYALARI (2 SOAT MA`RUZA)

REJA:

1. Axborot va axborot savodxonligi.
2. Media savodxonlik va media ta'lim.
3. O`quv jarayonida media ta'limning ahamiyati.
4. Raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari
5. Ta'limda raqamli texnologiyalar

*"Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari rivoji
barcha sohalarning jadal taraqqiyotiga xizmat qiladi,
odamlarga qulaylik yaratadi"*

Sh. Mirziyoyev

So`nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi mediasavodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi. An'anaviy tarzda mediasavodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan. Bugun mediasavodxonlik - axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Mediasavodxon inson o'ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? degan savolni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondoshishi lozim. Mazkur savollar nafaqat siz oilangiz davrasida televizor ko'rayotgan, mashinada radio eshitayotgan yoki internetdagi xabarlarini ko'rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir.

Jamiyatni axborotlashtirish - yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy iqtisodiy va ilmiy - texnikaviy jarayonidir.

"Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2019 yildagi PQ-4366-son qarori qabul qilingan.

Axborot va axborot savodxonligi

«Axborot» atamasi ko'plab tavsifga ega bo'lib, u ma'lumotlar, tadqiqot jarayonida olingan bilimlar, tajriba yoki tahsil olish, shuningdek, signal yoki belgilarni anglatishi mumkin.

Oddiy qilib aytganda, *axborot — bu to'plangan, qayta ishlangan va isohlangan, foydalanish uchun qulay bo'lgan ko'rinishda taqdim etiladigan ma'lumotlardir.* Axborotni yana bir boshqacha tavsifi — «tushunishga oson shaklda berilgan bilimlar»dir.

O'tmishda mazkur tushuncha ortida odamlar tomonidan bir-biriga og'zaki, yozma va boshqa usulda beriladigan ma'lumotlar tushunilgan. Keng ma'noda axborot ta'rifi kibernetika fanida keltirilgan. Uning asoschisi Norbert Vierning yozishicha, "axborot — bu biz unga va bizning hissiyotlarimizga moslashuvchi, tashqi dunyodan olingan mazmun tavsifidir".

Axborot tushunchasiga juda ko'p olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan:

Axborot — «bizni o'zgartiradigan» tushuncha (Stafford Beer, 1979).

Axborot — bu «insonning ongiga yetib boradigan va uning bilimini oshiradigan» tushuncha (Blokdjik and Blokdjik, 1987).

«Axborot — bu uni oladiganlar uchun ma'noga ega shaklga keltirilgan va joriy yoki keyingi harakatlar yoki qarorlar uchun haqiqiy yohud potensial qiymatga ega ma'lumotlar» (Davis and Olsen, 1984).

Axborot borasida savodxon insonlar qo'yidagi tayanch ko'nikmalarga ega bo'ladilar: tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qila bilish va undan o'z fikrini hayon etishda foydalanish, mustaqil ta'lim olish qobiliyati, davlat faoliyati va jamiyatda kechayotgan demokratik jarayonlarda ishtirok etish, xabardor fuqaro va o'z kasbining ustasi bo'lishga tayyor bo'lish.

Axborot manbalari

Axborot manbasi, odatda, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan (ya'ni, keng ommaga qiziq va kerak bo'lgan) axborotga ega bo'lgan shaxs yoki tashuvchidir. Kontent (mazmun, tartib, shakl) sifatiga ko'ra manbalar uch toifaga bo'linadi.

Birlamchi manbalar - bu original manbalar bo'lib, ular axborotni isohlamaydi. Bu tadqiqot hisobotlari, prays-varaqlar, nutq matnlari, elektron xabarlar, original san'at asarlari, qo'lyozmalar, fotosuratlar, kundaliklar,

shaxsiy maktublar, ogʻzaki hikoya/intervyu yoki diplomatik hujjatlar boʻlishi mumkin. Aksariyat holatlarda va

muayyan vaziyatlarda imkon qadar birlamchi axborot manbalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ikkilamchi manbalar sifatida axborotni yetkazib beruvchilar maydonga chiqadi. Bu holatda axborot oʻzgarishi, tahlil qilinishi yoki umumlashtirilishi mumkin (masalan, ilmiy kitoblar, jurnallar, tanqidiy tahlil yoki maʼlumotlar talqini). Foydalanishga tavsiya etiladigan birlamchi manbalar ikkilamchi manbalarga nisbatan har doim ham oʻzida nufuzli yoki xolis axborotni mujassam etmaydi. Axborotni subʼektiv baholash holatlarini tekshirilgan ikkilamchi manbalardan foydalanib bartaraf etish mumkin. Ikkilamchi manba muayyan soha yoki muayyan vaziyatdan kelib chiqqan holda belgilanishi mumkin.

Uchlamchi manbalar – bu tashkil etilgan va oʻzida birlamchi hamda ikkilamchi manbalardagi axborotni qayta ishlab, oʻzida mujassamlagan (masalan, referatlar, bibliografiya, turli qoʻllanmalar, ensiklopediyalar, koʻrsatkichlar, xronologik jadvallar, maʼlumotlar bazasi va h.k.) manbalardir.

Axborot savodxonligi – muammolarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilish maqsadida axborotni olish, tushunish, moslashtirish, yaratish, saqlash va taqdim etish uchun zarur boʻlgan kompetensiyalar (bilimlar, koʻnikmalar va qarashlar) majmui. Ushbu kompetensiyalar har qanday taʼlim doirasida, oʻquv va kasbiy muhit yoxud oʻz ustida ishlab malakasini oshirish jarayoniga taalluqlidir.

Mediasavodxonlik-bu axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Mediasavodxon inson oʻziga—bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? — degan savolni bera olishi va toʻgʻri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondasha olishi lozim. Mazkur savollar nafaqat oila davrasida televizor koʻrayotgan, mashinada radio eshitayotgan yoki Internetdagi xabarlarni koʻrayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir», — deydi jurnalist Nargis Qosimova oʻzining «Mediasavodxonlik va mediataʼlim: Mohiyat» nomli maqolasida.

Maʼlumotlarda keltirilishicha, medialoglar media va media texnologiyalarni oʻrganib chiqib, ularni shartli ravishda 5 turga boʻlganlar:

1. Dastlabki media — yozuv;
2. Bosma media — bosma nashrlar, litografiya, fotografiya;

3. Elektrik media — telegraf, telefon, ovozli yozuv;

4. Mass-media — kinematograf, televideniye;

5. Raqamli media — kompyuter, Internet.

Media savodxonlik va media taʼlim.

«Media» — lotincha «media» soʻzidan olingan boʻlib, «vosita», «vositachi» yanada aniqrogʻi, «ommaviy axborot vositalari» degan maʼnoni anglatadi. Media uzluksiz taʼlim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, darsning sifatli oʻtilishi va oʻquvchi-talabalar tomonidan oʻzlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, modem, foto, video, kompyuter texnologiyalari, Internet bilan doʻstlashish, bilimlarni kengaytirish imkonini yaratadi. «Lekin media yaxshilik bilan bir qatorda, yovuzlikka ham xizmat qilishga qodir. Bugun «oʻrgimchak odam»ga havas qilib, oʻzini pastga otgan bolalar, reklamalarda berilayotgan barcha axborotlarga ishonuvchi shaxslar, yot gʻoyalarga ergashib ketayotgan kimsalar ham bor», — deydi jurnalist oʻz fikrining davomida.

Media-savodxonlik taʼlimi ommaviy axborot vositalarining taʼsiri toʻgʻrisida xabardorlikni oshirish va ommaviy axborot vositalarini isteʼmol qilish va yaratishda faol pozitsiyani yaratish uchun moʻljallangan. Media savodxonligi boʻyicha taʼlim Amerika Qoʻshma Shtatlari va baʼzi Evropa ittifoqi mamlakatlarida oʻquv dasturining bir qismidir va media-savodxonlik fanlari va oʻqituvchilarining fanlararo global hamjamiyati ilmiy va professional jurnallar va milliy aʼzolik uyushmalari orqali bilim almashish bilan ibugʻullanadi.

Media savodxonligi boʻyicha taʼlim koʻpincha odamlarni tomosha qilgan, eshitgan va oʻqigan narsalari toʻgʻrisida savollar berishga undaydigan soʻrovga asoslangan pedagogik modeldan foydalanadi. Media-savodxonlik anʼanaviy yozma va bosma matn formatidan tashqariga chiqib, zamonaviyroq manbalarni oʻrganishga oʻtmoqda.

Media-savodxonlikning ayrim misollari qatoriga televizor, video oʻyinlar, fotosuratlar va audio xabarlar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi. Media-savodxonlik taʼlimi odamlarga xabarlarni tanqidiy tahlil qilish uchun qabul qiluvchi media qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan vositalarni taqdim etadi, oʻquvchilarga ommaviy axborot vositalari haqidagi tajribalarini kengaytirish imkoniyatlarini taqdim etadi va oʻzlarining media-xabarlarini

tayyorlashda ijodiy qobiliyatlarni oshirish uchun ommaviy axborot vositalarining qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Mediasavodxonlik ta'limining asosiy printsiplari "tomonidan belgilab qo'yilganidek", mediasavodxonlik ta'limining maqsadi har qanday yoshdagi odamlarda zamonaviy dunyodagi tanqidiy fikrlovchi, samarali kommunikator va faol fuqaro bo'lishlari kerakligi to'g'risida izlanish va fikr bildirish odatlarini rivojlantirishga yordam berishdir. Mediasavodxonligi to'g'risida ma'lumot erta bolalikdan ko'proq tanqidiy fikrlash va kontseptsiyalar va matnlarni chuqurroq tahlil qilish va so'roq qilish atrofida pedagogikani rivojlantirish orqali boshlanishi mumkin. Talabalarga ommaviy axborot savodxonligini o'rganish ommaviy axborot vositalarida axloqiy va texnik standartlarni aniqlashda, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ularning bilim, ijtimoiy va hissiy ehtiyojlari bilan qanday bog'liqligini tushinishda samarali bo'ladi.

Shimoliy Amerika va Evropada mediasavodxonlik imkoniyatlarni kengaytirish va proteksionistik istiqbollarni o'z ichiga oladi. Mediasavodli odamlar har bir vositaning o'ziga xos fazilatlarini tushunishini ko'rsatish uchun, shuningdek, ommaviy axborot vositalarini yaratish va faol fuqarolar sifatida ishtirok etish uchun media-xabarlarini mohirlik bilan yaratishi va ishlab chiqarishi mumkin. Mediasavodxonlik savodxonlikning kengaytirilgan kontseptsiyalashuviga hissa qo'shishi, ommaviy axborot vositalari, ommaviy madaniyat va raqamli ommaviy axborot vositalarini tahlil va baholashni talab qiladigan yangi "matnlar" sifatida ko'rib chiqishi mumkin. Jarayonni o'zgartirib ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilish faol va tanqidiy jarayonga aylanib, odamlar noto'g'ri ma'lumot berish va manipulyatsiya qilish imkoniyatlari to'g'risida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladilar va haqiqat nuqtai nazarini yaratishda ommaviy axborot vositalari va ishtirok etuvchi ommaviy axborot vositalarining rolini tushunadilar.

Media va texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirish orqali ommaviy axborot savodxonligi bo'yicha ta'lim bolalar va yoshlarga ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilish odatlari va ulardan foydalanish uslublari bo'yicha yaxshi tanlov qilishga yordam berish orqali himoya qilishning bir turini ta'minlashi mumkin.

Mediasavodxonlik ta'limi tarafdorlari ta'kidlashlaricha, maktab o'quv dasturlariga mediasavodxonlikning kiritilishi fuqarolarning faolligini oshiradi, ommabop ommaviy axborot vositalariga xos bo'lgan kuch tuzilmalari to'g'risida xabardorlikni oshiradi va talabalarga kerakli tanqidiy va so'rovchi ko'nikmalarni olishga yordam beradi. Ommaviy axborot vositalari jamiyatga

ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ammo ommaviy axborot savodxonligi talabalarga muqarrar xavf-xatarlarni tushunishga imkon beradimanipulyatsiya va ommaviy axborot vositalari orqali tarafkashlik. O'sib borayotgan tadqiqotlar to'plami ommaviy axborot savodxonligining yoshlarga ta'siriga e'tiborni qaratdi.

Mediasavodxonlik tanqidiy fikrlash va o'zini namoyon qilishni rag'batlantiradi, bu esa fuqarolarga o'z qarorlarini qat'iyat bilan ishlatishga imkon beradi. Media savodxonligi aholiga jamoatchilik muhokamasini tushunishga va o'z hissasini qo'shishga va oxir-oqibat o'z rahbarlarini saylashda to'g'ri qarorlar qabul qilishga imkon beradi. Mediasavodli odamlar, ularning lavozimga bo'lgan qarashlaridan qat'i nazar, media-xabarlarini dekodlashda tanqidiy pozitsiyani qabul qilishlari mumkin.

O'quv jarayonida media ta'limning ahamiyati.

Media-ta'lim hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi.

Media-ta'lim — bu media mahsulotlari bilan:

- muloqot madaniyatini kommunikativ imkoniyatlari tanqidiy tafakkuri mediamatni to'liq qabul qilish;
- interpretatsiya etish;
- tahlil qilish hamda baholashdan iborat.

Mediasavodxonlik insonga ekranli san'atni:

- televideniye;
- radio;
- video;
- kinomotograf;
- pressa;
- matbuot internet va boshqalarni taqdim etadi.

Manbalardan kelayotgan axborot oqimidan to'g'ri foydalanib, o'zining rivojlanishi uchun kerakli bo'lgan axborotlarni o'rganish. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda barcha media-resurslarini tahlil qilish muhim rol

o'ynaydi. Xorijiy media-ta'limning tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalar o'zining o'qish jarayonida asosan internet, televideniya manbalaridan foydalanishadi.

Jahon mediapedagogikasida medianing tarbiyaviy ijodiy usullaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Media-ta'lim usullari asosan keyingi muhim bosqichlarga bo'linadi.

1. Media-nazariyasi, uning tarixi, strukturasi hamda tili haqida bilim olish (o'qitish media-texnologiyasi);

2. Mediamatnlarni qabul qilishni rivojlantirish «o'qish, anglash, tasavvurni faollashtirish, xotirani rivojlantirish, fikrni turli usullarini rivojlantirish» (kritik, ijodiy, intuitiv hamda obraz yaratish).

Media-ta'lim faoliyatini olib borish uchun ma'lum bir professional bilim ko'nikma va ko'rsatgichlariga ega bo'lish lozim:

- maxsus yo'naltirilgan mediata'lim sohasida nazariy bilimlar hamda eng songgi axborotlarga ega bo'lish darajasi;
- motivatsiyalashgan ko'rsatgich.

Masalan, ta'lim jarayoniga:

- aqliy;
- visual;
- sensor;
- audio bo'lgan faoliyat;
- tezkor media-ta'lim sohasida metodik ko'nikmalarini darajasi, masalan, media-manbalarni va ulardagi axborotlarni ijodiy yondashish orqali qabul qilish.

Ularning kelib chiqish sabablarini sharoitlarini va harakatini o'rganib tahlil etish tashviqotchilik harakatini olib borish va optimal natijani tallash.

Kreativ (ijodiy media-ta'lim faoliyatidagi ijodiy fikrlash darajasi) (mobillilik, kommunikativlik, o'ziga xoslik, tasavvurni rivojlantirish fantaziya kabi xususiyatlarga ega bo'lish).

Dunyoda media-ta'limini ahamiyati turli xalqaro tashkilotlar UNESCO tashkilotining rezolyutsiya hamda tavsiyalarida media-ta'lim muhurligi alohida ta'kidlanib, mediata'lim rivojlanishini qo'llab-quvvatlagan (mediaeducation barcha turlari elektron, bosma, grafik, media va boshqalar)

hamda turli texnologiyalar bilan uzviy bog'langan holda rivojlanadi va insonlarni quyidagi faoliyatlarga yo'naltiradi.

1. Media-matnlarni tahlil qilish tanqidiy anglash va yaratish.
2. Media-mahsulotlarni (matn, video-audio) manbalarini topish va ularning quyidagi:
 - siyosiy;
 - iqtisodiy;
 - madaniy;
 - iqtisodiy xususiyatlarini aniqlash va ularni asl ma'nosini o'rganish.
3. Media-mahsulotlarini tushunish.
4. Shaxsiy media-mahsulotlarini yaratish tarqatish va ularga qiziqadigan auditoriyaga ega bo'lish.
5. O'rganish hamda yaratgan media mahsulotlarni hayot tarzini aniqlash. Media-ta'lim — bu butun hayot uchun konsepsiyasi deyiladi.

Raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari. Ta'limda raqamli texnologiyalar

Virtual va kengaytirilgan voqeelik, vizual ravishda yo'naltirilgan masofaviy ta'lim texnologiyalari talabalarni bugungi kun talablariga muvofiq sifatli bilim olishlari uchun xizmat qilmoqda. Ya'ni, masofaviy ta'lim tizimi virtual va kengaytirilgan voqeelik hamda vizual ravishda yo'naltirilgan raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi orqali talabalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini kengroq jalb etish imkonini bermoqda.

Raqamli texnologiyalar - foydalanuvchi manfaatlarini uchun axborotlarni yig'ish, tahrirlash, saqlash, tarqatish va foydalanish maqsadlarida birlashtirilgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy texnik vositalar to'plamidan iborat.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish va masofaviy ta'limning yangi avlod tizimlarini va elektron jurnallar faoliyatini samarali yo'lga qo'yilishiga olib keldi. Bunda nafaqat professor-o'qituvchilar va talabalar, balki ularning ota-onalari ham ishtirok etishi, ya'ni ular elektron jurnal baholarini, berilgan uyga vazifalarni, testlarni va qayta aloqa shaklidagi har bir talabaning

umumiy statistikasini ko'rib borish, shuningdek xabarlardan foydalanib, professor-o'qituvchilar bilan yozishmalar olib borish, eng asosiysi esa foydalanuvchining elektron madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol qo'llanilmoqda. iqtisodiyot, bank, xizmat sektori shuningdek ta'lim jarayonini ham tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib nafaqadagilarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni shakllantirmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining robotlashtirilishi, masalan bank sektorida, robotlar va ishchilar o'rtasidagi raqobat masalasi ham ko'tarilmoqda.

Raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so'zsiz foydasi bilan axloqiy, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o'rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari bilan bog'liq masalalar tobora ko'proq e'tiborga olinmoqda.

Ta'limda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llash uchun nimalar qilish kerak?

Birinchidan, albatta mamlakatimizda internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'ng yutuqlarini o'zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berishimiz lozim.

Ikkinchidan, o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, o'qitish vositalari va masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O'zbekistonning barcha oliy ta'lim muassasalarida qo'llash.

Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish.

To'rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish.

Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video-konferentsiya aloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish.

Oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash, o'qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz.

Biz ta'lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratishni istadik. Qachonki, planshet ta'lim olishning bir elementiga aylansa, bolalar o'qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Bu o'yin bilan klassik ta'limni birlashtirishga tengdir. Natijada o'qish jarayoni yaxshilanadi, o'zlashtirish, ta'lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi.

Ta'limda raqamli texnologiyalar

Raqamli ta'lim - ta'lim jarayoniga yordam beradigan va aniq natijalarga olib keladigan o'quv amaliyotidir. U nafaqat raqamli ta'lim vositalari orqali o'quv jarayonini davom ettirish, balki ta'lim sifatini va samarasini yanada oshirishga xizmat qiladi. O'quv jarayoniga raqamli ta'limni joriy qilinishi axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshlang'ich sinf o'qituvchisi innovatsion faoliyatining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ular pedagogga ma'lumotni boshqarish, undan foydalanish, shuningdek, inson faoliyatining barcha sohalarida bilimlarni tarqatish imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra, zamonaviy axborot jamiyatida pedagogning kompyuter, aloqa texnologiyalaridan, shu jumladan radio, televizor, zamonaviy mobil qurilmalar, gadjetlar, interaktiv uskunalari, podkasting, striming va kengaytirilgan realistik texnologiyalari, veb-xizmatlar, mobil ilovalar va boshqalardan foydalangan holda keng ko'lamli kasbiy, kognitiv, hordiq

chiqarish, maishiy va boshqa vazifalarni hal qilish qobiliyati alohida o'rin tutadi.

Olimlarning ta'kidlashicha ta'lim sohasida qo'llaniladigan raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi masalalarni amalga oshirishni o'z maqsadi qilib qo'yishi kerak:

- o'quvchilar fikrlashlarining tizimligini ta'minlash va rivojlantirish;
- bilim olish, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda mustahkamlashda o'quvchining idrok etish faoliyati barcha turlarini qo'llab-quvvatlash;
- ta'lim jarayoni yaxlitligini saqlab qolgan holda o'quv jarayonini individuallashtirish tamoyilini amalga oshirish.

Hozirgi davr o'qituvchilar yangilanayotgan va raqamlashtirilayotgan ta'lim tizimini puxta o'rganishlari lozim. Negaki ushbu kasb mohiyati tubdan o'zgaradi. Ta'lim tizimining raqamlashtirilishi o'quv materiallarini mustaqil o'rganish imkonini beradi. Ushbu jarayonda o'qituvchi yordamchi, yo'naltiruvchi vazifalarini bajaradi.

Raqamli texnologiyalar bilan tashkil qilinadigan ta'lim tizimi mustaqil ishlashni nazarda tutganligi sababli, o'quvchilar yoshligidan bilimga intilishi, o'z kuchi, mehnati bilan erishishi kerakligini tushunadi. Ta'lim tizimining bunday raqamlashtirilishi kelajakda o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini yanada mustahkamlaydi.

Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berilsa ta'lim oluvchilarga ta'lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta'lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishi xammamizga ma'lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'lim olishning bir turi deb olsak bo'ladi.

Raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta'lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o'stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim beruvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashi va raqobat tufayli ta'lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yana sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish imkoniyatini beradi.

Tabiiy tilni qayta ishlash (TTQI yoki NLP (Natural Language Processing))- yaratilayotgan mashinalarga inson tabiiy tilini tushunish va unga inson tilida javob berish qobiliyatini taqdim etuvchi sun'iy intellektning muhim tarmog'i hisoblanadi. TTQI orqali kompyuter sizning gaplaringizni eshitadi va unga mustaqil javob beradi. E'tiborlisi texnologiya inson ovozini tahlil qilish orqali u kimga tegishli ekanligini aniqlay oladi. TTQI texnologiyasi ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. U orqali o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini tahlil qilish va rivojlantirish mumkin. Shuningdek, o'quvchilarning o'quv faoliyatiga individual yondashuv orqali ularning motivatsiyasini ushlab turish va dars sifatini oshirish imkoniyatiga ega.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishga va ijobiy motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradi, chunki o'quvchilarning individual ta'lim imkoniyatlarini va ehtiyojlarini maksimal hisobga olish, o'quv mashg'ulotlari mazmuni, shakllarini tanlash keng imkoniyatlari, o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini ochib berish, o'quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishlariga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan raqamli o'quv resurslarini, individual testlar masofaviy darslarni tashkil etishda foydalanilishi mumkin.

Texnologik taraqqiyot va insoniyat ehtiyojlarining umumiy talabi sun'iy aqlning hayotimizning barcha sohalariga kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. U inson aqlining muqobili sifatida ko'rilmogda va tibbiyot, iqtisod, ta'lim kabi ko'plab sohalarning rivojlanishida asosiy rol o'ynamoqda. SI dan davlat tashkilotlarida foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda. Jumladan, sun'iy intellekt usullari moliya sohasida qaysi operatsiyalarda firibgarlik bo'lishi mumkinligini aniqlashda, tezkor va aniq kredit qarorlarini qabul qilishda, shuningdek, ma'lumotlarni boshqarish bo'yicha vazifarni avtomatlashtirishda yordam bermoqda. Sun'iy intellektni puxta o'rganish natijasida har bir shaxs kelajakda o'z kasbida undan samarali foydalanish, uning imkoniyatlarini baholash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Sun'iy intellekt (SI) – tashqi ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilish, ularni o'rganish va turli vaziyatlarga moslashish orqali aniq maqsad va vazifalarga erishishda ushbu ma'lumotlardan foydalana olish qobiliyatiga ega tizim Sun'iy intellekt mashinalarga inson intellektual xulq-atvori va fikrlash qobiliyatiga taqlid qilish imkoniyatni taqdim etadi. Ammo taraqqiyot to'xtab turmaydi, u doimo rivojlanishda bo'ladi. Shunday ekan, vaqt o'tishi bilan sun'iy intellekt

bajarishi mumkin bo'lgan ishlar ko'lamining kengayishi natijasida unga nisbatan qo'llaniladigan ta'rif ham muttasil o'zgarib turishi mumkin.

Sun'iy intellekt tarixi

Sun'iy intellektning amaliy fan sifatida rivojlanishi Alan Tyuring nomi bilan bog'liq. 1950-yilda Tyuring kelajak mashinalari imkoniyatlari va ularning aql bobida insoniyatni ortda qoldirishi bo'yicha muammoli savollarni o'rtaga tashlaydi. Jumaladan, "Turing testi" nomli protsedurani taklif etadi. Bu protsedura sun'iy intellekt tafakkurini inson tafakkuriga taqqoslash orqali ularni baholash imkonini berdi.



Alan Tyuring

1951-yilda Marvin Minskiy va Dekan Edmunds SNARC (Stochastic Neural Analog Reimforc Calculator) nomli sun'iy neyron tarmoqlariga asoslangan sun'iy intellekt mashinasini ishlab chiqdi. 1956-yilda AQSHda sun'iy intellekt masalalariga bag'ishlangan Dortmut konferensiyasi tashkil etiladi. Konferensiyada o'sha davrning mashhur olimlari Marvin Minskiy, Jon Makkarti, Klod Shennon, Natan Rochester va boshqalar ishtirok etishadi hamda sun'iy intellekt sohasi bo'yicha rivojlanish nuqtalarini belgilab olishadi. Konferensiya natijasi o'laroq, Marvin Minskiy tomonidan *sun'iy intellekt* atamasi fanga ilk bor rasman kiritiladi.



Jon Makkarti

Marvin Minskiy

Klod Shennon




1995-yilda ALICE (Artificial Linguistic Internet Computer Entity) chatboti yaratildi va birinchi bor kompyuter va inson o'rtasida ovozli muloqot amalga oshirildi. Bu esa sun'iy intellektga asoslangan gumanoid robotlarining keng ko'lamda ishlab chiqarilishiga turtki bo'ldi.

IBM kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Deep Blue aqliy kompyuteri 1997-yilda shaxmat bo'yicha jahon chempionini mag'lub etib, aqliy jihatdan insondan ustun kelgan birinchi sun'iy intellekt sifatida tarixga kirdi.

2000-yilda Honda korporatsiyasi "ASIMO" nomli gumanoid robotni namoyish etdi. Robot inson tanasi shakliga ega bo'lib, harakat va muloqotning ma'lum elementlarini amalga oshirar edi.

2009-yilda Google tomonidan haydovchisiz avtomobil ishlab chiqarildi.



2011-yilda IBM tomonidan ishlab chiqilgan, savollarga tabiiy tilda javob beruvchi "Watson" nomli kompyuter bilim borasida insondan ustun keldi. Bu esa sun'iy intellektning bilim olish qobiliyati cheksiz ekanligini yana bir bor isbotladi.

2011-yilda Apple, 2014-yilda esa Microsoft va Amazon kompaniyalari o'zlarining ovozli yordamchilarini (chatbot) taqdim etdi.

2012-yilda surat orqali inson tashqi qiyofasini xaritalovchi sun'iy intellekt texnologiyasi yaratildi.



2016-yilda inson ko'rinishidagi Sofiya ismli robot yaratildi. Boshqa gumanoidlardan farqli ravishda, Sofiya ko'rish (tasvirlarni taniy olish), yuz mimikasi va insonlar bilan mustaqil muloqot o'rnata olish imkoniyatlariga ega edi.



2017-2020-yillarda Google, Alibaba, Samsung, Facebook kabi yirik kompaniyalar o'z dasturlarida sun'iy intellektdan foydalanishni boshladi. Bu esa insonlar uchun yanada qulay xizmatlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Sun'iy intellektning xususiyatlari to'laqonli sun'iy intellekt imkoniyatlarini ko'rsatuvchi asosiy omil hisoblanadi. Bugungi kunda sun'iy intellekt qo'llanilayotgan sohalarda uning ma'lum bir xususiyatlariga qo'llanilmoqda.

1. Chuqur o'rganish. Sun'iy intellekt vositalari inson tabiiy qobiliyatini o'zida namoyon qila olish darajasida o'rganishi, shu orqali rivojlanish xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Sining chuqur o'rganish xususiyati o'zini o'zi boshqaruvchi avtomobillarda, yuzni tanish, matn ko'rinishidagi axborotlarni avtomatik yaratish kabi sohalarda samarali qo'llanilmoqda hamda uning turli sohalardagi ahamiyati yanada ortib bormoqda. Masalan, "Tesla" (autopilot) kabi avtomashinalarda o'zini o'zi boshqarish texnologiyasiga asoslangan chuqur o'rganish xususiyati to'xtash belgisini tanib olish yoki piyodalarni aniqlash imkoniyatini taqdim etadi.



2. Yuzni tanib olish. Sun'iy intellekt biometrik xaritalash yordamida insonlar yuzini tanishi va ularni bir-biridan farqlashi lozim. SI texnologiyalarining yuzni tanish xususiyati kuzatuv

texnologiyalarining izchil rivojlanishga olib keldi. Bu texnologiya biror odamni topish uchun uning yuzini bazada mavjud ma'lum yuzlar bilan taqqoslaydi.




3. Oddiy vazifalarni avtomatik takrorlash. Sining bu xususiyati bir xil vazifalarni avtomatik ravishda takroran bajarish qobiliyati sanaladi. Zamonaviy avtomobil korxonalarida ishlayotgan robotlar shu xususiyati tufayli mutlaqo nuqsonsiz avtomobillarni ishlab chiqarmoqda. Turli jarayonlarni avtomatlashtirish nafaqat samaradorlikni oshirishni, balki qo'shimcha xarajatlar kamayishini hamda xavfsiz mehnat muhitini taminlaydi.




4. Ma'lumotlarni qabul qilish – ma'lumotlarni tartib asosida to'plash, saqlash, qayta ishlash, uzatish va tahliliy xulosalarni chiqarishga yo'naltirilgan SI xususiyati. Bu jarayon ko'proq sun'iy neyron tarmoqlari yordamida amalga oshiriladi.



5. Chatbotlar – audio yoki matn ko'rinishidagi axborotlarni tahlil qilish orqali ularga ma'lum javob qaytarish asosida murojaatchi muammolarini yechishga yo'naltirilgan SI xususiyati.



6. Kvant hisoblash. SI superkompyuterlarga hisoblashi mumkin bo'lgan axborotlarni kvant fizikasi yordamida ehtimoliy kvant kompyuterlari orqali yechilishini nazarda tutadi. Kvant hisoblash bo'yicha eng ilg'or loyihalardan biri *Google AI Quantum* bo'lib, uning maqsadi super o'tkazuvchi kubit protsessorlarni ishlab chiqish hamda turli ilovalarni kvant yordamida optimallashtirishdan iborat.



7. Bulutli hisoblash. Sining bulutli hisoblash xususiyati katta hajmdagi axborotlar bilan ishlashda ularni saqlash, masofadan boshqarish va uzatish imkoniyatini beradi. Bulutli hisoblash sohasida *Microsoft Azure*, *Google Cloude*, *Alibaba Cloude* yetakchi provayderlar hisoblanadi. (Rasm olingan sayt: pngrepo.com)

Hozirgacha sun'iy intellekt qo'llanilayotgan texnologiyalar uning barcha xususiyatlarini o'zida jamlagani yo'q. Ammo uning malum xususiyatlarini qo'llashning o'zi ham sohalar rivojida natijalarning yaxshilanishi va o'sishiga olib keldi. Bu esa sun'iy intellektni rivojlantirishga bo'lgan e'tiborni yanada oshirdi.

8. Sun'iy intellekt (SI) barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham rivojlanish va innovatsiyalarga asosiy omil bo'lmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, keyingi uch yil ichida ta'limni boshqarish vositalarining 47% dan ortig'ida SI xususiyatlari qo'llaniladi. [3, 5-bet] Ta'lim va SI texnologiyalarni integratsiyasining jadallashuvida va pedagoglarning virtual ta'lim texnologiyalardan yanada samarali foydalanishida pandemiya sharoiti muhim ro'l o'ynadi.

SI ta'limni optimallashtirish, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida ma'qbul munosabatlarni shakllantirish va ta'lim sohasini rivojlantirish imkoniyatiga ega.

SI ning ta'limda qo'llanilishi talabalarga quyidagi afzaliklarni taqdim etadi:

- **Individuallashtirish:** ta'limdagi eng katta tendensiyalardan biri bu ta'limni shaxsiga yo'naltirish yoki shaxsiylashtirishdir. Ta'lim jarayonida SI dan foydalanish talabaning iqtidor va imkoniyatlari va o'quv dasturi o'rtasida uzviy aloqani shakllantiradi. Yani SI har bir talabaning bilim darajasi, o'rganish tezligi va istaklariga moslasha oladi, bu o'qitish jarayonida maksimal samaradorlikni taqdim etishi mumkin. Bundan tashqari, SI o'quvchilarning o'rganish tarixini tahlil qilishi, zaif tomonlarini aniqlashi va yaxshilash uchun mos kurslarni taklif qilishi mumkin. Bu har qanday saviyadagi o'rganuvchi uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etishi orqali dolzarbdir.

- **Takrorlovchi (repetitor yoki chatbot):** O'qitish jarayonida talabalar sinfdan tashqari qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lsada, ta'lim beruvchi ish soatidan so'ng qo'shimcha vaqt ajratish imkoniyatiga ega emas. SI texnologiyasining chatbot xususiyati bu masala uchun maqbul yechimdir. Bugungi kunda hech bir chatbot ta'lim beruvchi vazifasini to'liq bajara olmaydi, ammo bu SI vositasi o'quvchilarga sinfdan tashqari holatda mavzularni to'liq o'zlashtirishga yordam beradi. Ular kunning istalgan vaqtida ta'lim beruvchi o'rniga savollarga javob beradi va o'rganuvchilar bilan individual ishlaydi.

- **Tezkor savol-javob:** O'rganuvchilar tomonidan beriladigan savollar ularning mavzuni yaxshiroq tushinishga yordam beradi. O'rgatuvchiga yuborilgan savolning javobini uzoq vaqt kutush asabiylashishga sabab bo'ladi. O'rgatuvchi esa bir xil mazmudagi savollarning takrorlanishi sabab ko'p vaqtini yo'qotadi. Sun'iy intellekt o'rganuvchilarga avtomatlashtirish holatda, NLP texnologiyasi orqali bir necha soniya ichida eng ko'p beriladigan savollariga javob berishi mumkin. Bu ikki tomonlama ijobiy natijalarni taqdim etishi mumkin.

- **Ta'limda 24/7 imkoniyati :** SI ga asoslangan ta'limiy vositalar o'rganuvchilarga istalgan vaqtda va istalgan joyda ta'lim olish imkoniyatini beradi.

Har bir o'rganuvchi o'zi uchun maqbul vaqtda ta'lim oladi va bu orqali mustaqil ta'lim olish ko'nikmasi yaxshi shakllanadi. Bundan tashqari, SIga asoslangan onlayn ta'lim platformalari butun dunyoning ta'limiy markazlaridan biri sifatida turli xil harajatlarning oldini oladi. Bu inson qadrini ulug'laydi va moliyaviy notenglikning ta'limga salbiy tasirini nol darajaga tushuradi.

Ta'limda SI texnologiyalari quyidagi dastur va platformalar orqali qo'llanilmoqda:

Britaniyaning Century Tech SI kompaniyasi Belgiyaning Flandriya viloyati maktablar va universitetlarga SI texnologiyalariga asoslangan ta'limni individuallashtirish dasturlarini o'rnatishmoqda.

Knewton dasturi talaba bilimidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi, tegishli kurs ishlarini taqdim etadi va talabalarni unversitet darajasidagi kurslarga yo'naltiradi. Hozirda matematika, kimyo, statistika va iqtisod kabi sohalarni o'qitishda qo'llanilmoqda.

Cognii virtual o'quv yordamchisi o'quvchilarni tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi suhbat texnologiyasidan foydalanadi. Yordamchi, shuningdek, real vaqt rejimida fikr-mulohazalarni taqdim etadi va o'quv jarayonini har bir talabaning ehtiyojlariga moslashtiradi.

Querium maktab o'quvchilariga STEAM bo'yicha repetitorlik darslarini berishda SI dan foydalanadi. Mashg'ulotlarini tahlil qiladi va o'qituvchilarga talabaning o'rganish imkoniyati haqida ma'lumot beradi. Shuningdek mavzularni o'quvchi darajasiga moslash bo'yicha tavsfiyalarni doimiy ravishda rivojlantirib boradi.

Duolingo sun'iy intellektga va u orqali ta'limni yaxshilashga e'tibor qaratgan. Ilova orqali o'ndan ortiq chet tillarini bepul o'rganish mumkin. Dastur har bir foydalanuvchining til o'rganish darajasini tahlil qiladi va bu orqali ikkinchi tilni o'rganish jarayonida mavzularni individuallashtiradi. Shuningdek, dasturda tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyasi juda yaxshi qo'llanilgan. Bu chet tillarini tez va samarali o'rganishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonini tashkil etishning kelajagi bevosita SI texnologiyalari bilan o'zaro bog'liq bo'lishi va bu jarayonlarni muvofiqlashtirish, fanlar kesimida yangi bilimlarni qisqa vaqt ichida ta'lim jarayoniga kiritish, o'quv jarayonini individuallashtirish, vaqt kesimida yuqori samaradorlikka erishish va ta'limdagi notenglikka yangi yechimlarni taqdim etishi bilan ahamiyatli ekanligini takidlash lozim.

Nazorat savollari

1. Axborot bu nima?
2. Olimlar axborot so'ziga qanday ta'rif berishgan?
3. Media so'zining ma'nosi?
4. Ta'lim jarayonida media ta'limdan qanday ko'rinishlarda foydalaniladi?
5. Media ta'limni qanday ahamiyati
6. Raqamli texnologiyalar nima?
7. Qanday maqsadlarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalaniladi.
8. Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishda qanday ishlar amalga oshiriladi?
9. Raqamli ta'lim deganda nimani tushunasiz?
10. Ta'limda jarayonida qaysi o'quv resurslaridan foydalaniladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lutfullayev M.X. Multimediali elektron darsliklar asosida ta'lim tizimi samaradorligini oshirish// Ta'lim va tarbiya. –2003. –№3–4
2. S.Eshqobilov, B.Xurramov "Fanni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish". O'quv qo'llanma. – A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI, 2019 y.
3. Geake, J. (2008) Neuromythologies in education. Educational Research, 50: 2:123–133.
4. Ghaoui, C. and Janvier, W.A. (2009) Interactive e-learning, International Journal of Distance Education Technologies, 2: 3: 2: 26–35
5. Chatbot Magazine (2019). A Visual History of Chatbots. Retrieved March 9, 2019 from: <https://chatbotsmagazine.com/a-visual-history-of-chatbots-8b3b31dbfb2>
6. Colace, F., De Santo, M., Lombardi, M., Pascale, L., Pietrosanto, A. (2018). Chatbot for E-Learning: A Cases Study. International Journal of Mechanical Engineering and Robotics Research Vol. 7, No. 5, September.
7. Egencia (2018). What is a Chatbot and How does it work? Retrieved March 9, 2019 from: <https://www.youtube.com/watch?v=38sL6pADCog>

8. Hattie, J. (2012). Visible learning for teachers: Maximizing impact on learning: Routledge. <https://chatbotsmagazine.com/a-visual-history-of-chatbots-8bf3b31dbfb2>

4-MAVZU: TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN AXBOROT RESURLARNI YARATISH TEXNOLOGIYALARI. (AMALIY MASHG'ULOT 2SOAT)

REJA:

- 1. Internet tarmog'i orqali ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan didaktik materiallar yaratish.**
- 2. Pedagogik dasturiy vositalar orqali media resurslarni yaratish.**

Hozirgi texnika rivojlangan asrda hayotimizni axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda kompyuter texnologiyalari yordamida darslarni o'tkazish o'quvchilarni darsda befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi, kompyuter savodxonligini oshirish hamda o'zi tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish bugungi kunning dalzarb masalasidandir. Kun sayin hayotimizning har bir sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilib, kasbiy faoliyatimiz samaradorligini oshirmoqda. Bugungi kundalik hayotimizni nafaqat televizor, radio, balki mobil telefonlari, kompyuter, planshet kabi zamonaviy qurilmalarsiz o'tkaza olmay qoldik, ulardan foydalanib, turmushimiz mazmunini boyitamiz, ish va ta'lim olishdagi vazifalarimizni yengillashtiramiz. Hozirgi davrda barcha boshqa sohalarda qatorida ta'lim tizimida ham turli fanlarni o'qitishda AKT imkoniyatlarini joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

AKT nafaqat o'quvchilarda bilim va malakalarini shakllantirishga, balki ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga oid qiziqishlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Keyingi davrlarda ko'plab psixologik va ilg'or pedagogik sohalarda chop etilayotgan maqolalarda, AKT o'quvchilarning bilimi, ijodiy tafakkurini rivojlantirishi haqidagi fikrlar ta'kidlanayotganining guvohi bo'lmoqdamiz.

AKT imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim jara-yonida beriladigan axborotlar doirasini boyitish va o'quvchilar tomonidan qiziqish bilan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Ta'lim jarayoniga AKTning joriy etilishi bilan zamonaviy axborot muhitiga xos bo'lgan ta'limga yangicha yondashuv shakllana boshladi. Shu sababli ham ta'lim jarayonining qiziqarliligi va samarasini yanada oshirish zarurati yuzaga keladi va bunda mazkur jarayonga AKT ni joriy etish katta ahamiyat kasb etadi.

Umumiy ma'noda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi salohiyati tushunchasida insonning AKT savodxonligi, ya'ni kundalik hayotida ham, kasbiy faoliyatida ham undan to'g'ri foydalana olish qobiliyati nazarda tutiladi.

AKT dan ta'lim jarayonida foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirish chun katta imkoniyat hisoblanadi.

Piktochart-qulay va murakkab bo'lmagan infografika dizayneri hisoblanadi. Ishlab chiquvchilar va yangi foydalanuvchilar uchun bu "infografikani oson yaratish" ma'nosini beradi. Bu etarli emas, shuning uchun batafsil ma'lumot beramiz.

Piktochartga kirishning uchta varianti mavjud: *bepul*, *pullik (pro)* va *korporativ*. Shuningdek, ta'lim muassasalari, xayriya tashkilotlari va infografikaning individual rivojlanishi uchun ham mavjud.


Piktochart-bu veb-grafika sohasida ko'nikmalarni talab qilmaydigan infografika yaratish dasturi. Unda 600 dan ortiq turli xil uslubdagi shablonlarga ega kutubxona mavjud. Xizmatdan foydalanib siz prezentatsiyalar, plakatlar, reklama bannerlarini yaratishingiz, hisobotlarga grafikalar va rasmlarni qo'shishingiz mumkin. Yechim veb-versiya, shuningdek Android va iOS-ga asoslangan smartfon ilovalari sifatida taqdim etiladi.

Xizmat raqamli va matnli ma'lumotlarni turli xil vizual taqdimotlarga tarjima qilishdan manfaatdor bo'lgan kichik, o'rta va yirik biznes vakillari uchun mo'ljallangan. Dastur savdo va reklama menejerlari, mijozlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassislar, murabbiylar va maslahatchilarning ishlarida foydalidir, ular yordamida tinglovchiga qiziqarli bo'lgan rasmlarga kiritilgan statistik ma'lumotlarni taqdim etishlari mumkin. Bepul tarif tizimni talabalar, frilanserlar va boshlang'ich xodimlar uchun ochiq qiladi.


Piktochartning asosiy xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

- Dizayn elementlari bilan infografika yaratish
 - 600 dan ortiq andozalar
 - Ma'lumotlarni ommaviy eksport qilish imkoniyatlari
 - Tizimning asosiy imkoniyatlariga ega bepul versiya
- Infografika yaratish.


Bloklardan infografika xizmat ochiladi. Xizmatga ro'yxatdan o'tgandan so'ng, siz o'zingizning ish kutubxonangizga kirasiz. Yangi dizayn yaratish uchun "yangisini yaratish" ("yangisini yaratish") tugmasini bosib-u yuqori o'ng tomonda joylashgan.



Xizmat turli xildagi grafik turini tanlashni taklif qiladi.



Loyiha turini tanlash oxirida nimani olishni xohlayotganingizga bog'liq bo'lishi lozim.



Infografika-veb uchun grafik longrid, uzoq aylantirishni nazarda tutadi.

Taqdimot-tomonlar nisbati 4:3 bo'lgan slaydlar to'plami.

Bosma varaqalar, hisobotlar — A4-da chop etiladigan barcha narsalar.


Har bir grafik turi uchun xizmatda bepul shablonlar to'plami, shuningdek, noldan loyiha yaratish imkoniyati mavjud. Bepul shablonlar juda ko'p emas, lekin xizmat ularni vaqti-vaqti bilan o'zgartiradi.

Maslahat: agar siz muvaffaqiyatli bepul shablonni ko'rsangiz, unda "baliq"qiling. Bunday holda, Piktochart uni bepul kirishdan olib tashlasa ham, u sizning kutubxonangizda saqlanadi.

Pulli hisob egalari tayyor shablonlar galereyasiga kirish huquqiga ega. Ishni boshlashdan oldin siz shablonni katta hajmda ko'rishingiz mumkin — sichqoncha kursorini o'zingiz yoqtirgan loyiha ustiga olib boring va "ko'rib chiqish" ("oldindan ko'rish") tugmasini bosib.




Vazifalaringiz uchun mos shablonni tanlang, ustiga kursorni olib boring va "shablondan foydalanish" tugmasini bosib («Использовать шаблон»).



Yangi oynada grafikalar bilan ishlashning asosiy paneli ochiladi. Piktochartda grafikalarini tuzishning modulli printsipti - yon menyu bloklarni

ko'paytirish, o'chirish yoki ularning tartibini o'zgartirishga imkon beradi. Ularning chegaralari varaqda keng kulrang chiziqlar bilan ko'rsatilgan.



Grafik elementlarni o'zgartirish, ularning o'lchamlari, shaffofligi, tartibini sozlash, olib tashlash, guruhlash uchun asboblari paneli orqali o'zgartiriladi.




Ashlash funksiyasini bilish uchun uning ustiga kursor olib boriladi

Han bilan ishlash paneli siddi MS World-dagi panelga o'xshaydi. Piktochartda shriftlarning o'lchamini va uslubini, shaffofligini, yo'nalishini, yetakchisini o'zgartirish mumkin.

Xizmat "tezkor tugmachalarni" qo'llab-quvvatlaydi: nusxalash va joylashtirish uchun standart Ctrl+C va Ctrl+V (Mac uchun buyruq-C va buyruq-V) va o'lchamini o'zgartirganda ob'ektning nisbatlarini saqlab qolish uchun Shift tugmachasini bosib ushlab turing. Siz ob'ektni Backspace tugmasi bilan o'chirishingiz va Ctrl+Z (Mac uchun buyruq-Z) kombinatsiyasi bilan oxirgi amalni bekor qilishingiz mumkin.

Chapdagi Menyuda keraldi rasmni yaratishga yordam beradigan elementlar mavjud.




Grafika: shakllar va piktogrammalar, GIF-piktogrammalar (pulli hisoblar uchun), chiziqlar, fotosuratlar va foto ramkalar. Siz qidiruvdan foydalanishingiz mumkin, ammo esda tutingki, xizmat faqat ingliz tilini qabul qiladi.

Yuklamalar. Maxsus elementlar: piktogramma, fotosuratlar va boshqa grafik ob'ektlar. Bepul hisob sizga 40 Mb gacha rasmlarni yuklab olishga imkon beradi, pullik hisob esa xotirani 100 Mb gacha kengaytiradi. Vaqti-vaqti bilan xizmatdagi kutubxonadan ortiqcha narsalarni olib tashlashni unutmang.

Orqa fon. To'qimalar va tekis substratlar mavjud. Fon shaffofligini sozlash mumkin.

Matn. Turli xil bo'ysunishlarning matn elementlaridan tashqari, shablonni tanlash mumkin, ammo ular lotin alifbosiga o'rnatilganligini yodda tutish kerak.



Rang sxemalar, masalan, korporativ ranglarni yoki boshqa har qanday rang kombinatsiyasini ishlatilgan barcha naqshlarga qo'llashga imkon beradi.

Asboblari: grafikalar, xaritalar, videolar. Agar siz loyihani internetda haham ko'rsangiz, elementlar interaktiv bo'ladi.

Infogram.com - diagrammalar, xaritalar, grafikalar va boshqaruv panellarini yaratish uchun platforma. Cheklangan kirish huquqlari va maxfiylik sozlamalari bilan hamkorlik imkoniyatlari mavjud. Tizim bulutda ishlaydi, shuning uchun ham kompyuter va smartfonlardan foydalanish mumkin.

Dasturiy ta'minot ommaviy axborot vositalari, marketing, ta'lim va savdo sohalarida ishlaydigan mutaxassislar va jamoalar uchun mo'ljallangan. Har bir ma'lumotlar qatorini vizual va esda qolarli tarzda uzatishi kerak. U yig'ilishlarga, mijozlar uchrashuvlariga, maqsadli auditoriya va talabalar oldida nutq so'zlashga tayyorgarlik ko'rish uchun ishlatilishi mumkin. Dastur, shuningdek, infografika bilan hisobotlarni yaratish uchun mutaxassislar uchun foydalidir.

Xizmat 35 dan ortiq interaktiv grafik shablonlari va 500 dan ortiq xaritalarni taqdim etadi, ular pirog jadvallari, gistogrammalar, ustunlar jadvallari va so'z bulutlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni tasavvur qilishga yordam beradi. Siz taqdimotni fotosuratlar, piktogramma va gif animatsiyalari kutubxonasidagi rasmlar bilan to'ldirishingiz, shuningdek rasmlarni qurilmangizdan yuklashingiz mumkin. Dizayn uchun 20 dan ortiq turli xil mavzular taklif etiladi, ammo siz tashkilot uchun logotip, shriftlar va ranglar bilan markalashni hisobga olgan holda yaratishingiz mumkin.


Infogramning asosiy xususiyatlar quyidagicha:

- Interaktiv infografika
- Ijtimoiy tarmoqlar va bulutli saqlash bilan integratsiya
- 35 dan ortiq interaktiv grafikalar va 500 dan ortiq xaritalar
- Rasmlar kutubxonasi
- **Bepul tarif:** 10 tagacha loyiha, har bir loyihada 3 tagacha sahifa

Canva - bu grafik dizayn platformasi bo'lib, odamlar undan SMM, posterlar, taqdimotlar, hujjatlar va boshqa vizual ishlarni yaratishda foydalanishadi. Saytda tayyor dizayn qoliplari mavjud. Platformani ishlatish bepul bo'lib, qo'shimcha imkoniyatlarni taqdim qiluvchi pullik obunalar —

Canva Pro and **Canva for Enterprise** ham mavjud. 2020-yil iyunida, **Canva** 60 million avstraliya dollari miqdoridagi investitsiya jalb qilib, bozordagi narxini 6 milliard Avstraliya dollariga yetkazib oldi.


Avvalo, siz ro'yxatdan o'tishingiz va profilga kirishingiz kerak. Bu erda siz Google, Facebook yoki Apple hisoblari orqali tizimga kirishingiz mumkin.



Биринчи kirishdan so'ng siz muharrirning asosiy xususiyatlari va vositalari haqida ma'lumot beradigan qisqa o'quv kursidan o'tishingiz mumkin.

Tayyor shablonlar

Siz allaqachon tushunganingizdek, Canvada turli xil maqsadlar uchun juda ko'p shablonlar mavjud – vizitkalaridan tortib, ochilish sahifalari uchun maketlarga qadar. Ularning barchasi asosiy sahifadagi tegishli bo'limda mavjud.




Sahifalarda turli xil misollarini ko'rib chiqish mumkin. Tegishli bo'limga o'tib, barcha mavjud variantlarni ko'rib chiqiladi. Aytgancha, ular doimiy ravishda yangi namunalar bilan to'ldirilmoqda.



Agar xohlasangiz, tartib ichidagi barcha elementlarni almashtirishingiz, keraksiz tafsilotlarni olib tashlashingiz yoki to'plamdan yangi piktogramma qo'shishingiz mumkin – bu erda hamma narsa faqat sizning tasavvuringiz bilan cheklangan.

Va endi qiziqarli qism-siz namunani to'g'ridan-to'g'ri muharrirda o'zgartirishingiz mumkin. Aytaylik, siz bitta variantni tanladingiz, lekin yo'lda u sizga yoqmasdi. Shablonlar menyusini oching va boshqa har qanday namunani tanlang.



Добавить страницу


Tasvirni qayta ishlash

Canvada tasvirlar bilan ishlash uchun uskunalar mavjud. Masalan, alohida ulanishi kerak bo'lgan effektlar to'plami, allaqachon o'rnatilgan ko'plab filtrlar, yorqinlik, to'yinganlik sozlamalari va boshqalar.



Loyihani yuklab olish, saqlash yoki boshqalarga ulashish mumkin.

Canva xizmatidan tayyor dizaynni eksport qilishning ikki yo'li mavjud - qurilma xotirasiga yuklab olish yoki biron bir ijtimoiy tarmoqqa yuborish. Agar bunday imkoniyat mavjud bo'lsa, darhol shablonni chop etishga yuborishingiz mumkin. Aytgancha, yuklab olish uchun ko'plab mashhur formatlar taklif etiladi.



Bandicam - bu ekran, o'yin va veb-kameralarni yozib olish uchun eng yaxshi yozuv dasturi! Bandicam Windows uchun engil ekran yozuvchisi bo'lib, u kompyuter ekranidagi har qanday narsani yuqori sifatli video sifatida yozib olishi mumkin. Bundan tashqari, kompyuter ekranida ma'lum bir maydonni yozib olish yoki DirectX / OpenGL / Vulkan grafik texnologiyalaridan foydalanadigan o'yinni yozib olish mumkin., video sifatini aslarga yaqinroq tutganda va shunga o'xshash funksiyalarni ta'minlaydigan boshqa yozuv dasturlaridan ancha yuqori ishlashga imkon beradi.


BANDICAMNING ASOSIY XUSUSIYATLARI




Haqiqiy vaqtda tasvirlar olish
Haqiqiy vaqtda video yoki tasvirlarni har qanday joyda yozib olish.




Veb-kamera qatlamini qo'shish
Yozib olingan videoning o'zida yozib olingan veb-kamera videoni qo'shish.



Rejalashtirilgan yozuvlar
Belgilangan vaqtda kunduzi / haftalik / haftada video yozib olish.



O'z ovozingizni aralashtirish
Yozib olingan videoda o'z ovozingizni aralashtirish.




Sichqoncha effektlari
Video filtri, aralashtirish, sichqoncha, bosish effektlari va boshqalar qo'shishga imkon beradi.



Chroma Key Effect
Video filtri, aralashtirish, sichqoncha, bosish effektlari va boshqalar qo'shishga imkon beradi.



Bandicamni ishga tushirish uchun ro'yxatdan o'tish lozim.



Videoni suratga olish ishlash

Videoni suratga olish rejimini tanlash bilan boshlanadi: *ekran yoki o'yin*. Ekranni to'liq yoki uning alohida qismlarini yozib olish mumkin:

- to'rtburchaklar maydon;
- to'liq ekran;
- kursor atrofidagi maydon..




Belgilangan tezkor tugmachani bosganingizda (masalan, F12), ekran yozuvi boshlanadi, takroriy bosgandan so'ng u to'xtaydi. Pauza qilish va keyin otishni davom ettirish mumkin.




Rasmiy veb-saytdan bepul sinovdan foydalanganda, suratga olish vaqti 10 daqiqa bilan cheklangan.


Videoni suratga olish uchun ishlatiladigan Sozlamalar va qurilmalar kompyuterning kuchiga va sifat talablariga bog'liq. Masalan, zaif kompyuterda kechikishsiz tortishish uchun kvadrat tezligini (FPS) 30 ga o'rnatish tavsiya etiladi. Bandicam-da video uchun qaysi kodekdan foydalanish yashiroq, shuningdek, kompyuterning texnik parametrlariga, sifat talablariga bog'liq. Motion JPEG universal deb hisoblanadi va h264 ham keng qo'llaniladi.



Rasmga tushirishda, agar xohlasangiz, sichqoncha kursorini ko'rsatish parametrlarini, uni bosish effektlarini o'rnatishingiz mumkin.



Dasturning yangi versiyalarida qo'llab-quvvatlanadigan qurilmalar (veb-kamera, Xbox, smartfon va boshqalar) ro'yxati bilan "Записи с устройства" rejimi ham mavjud.




Elektron axborot ta'lim resurslarini yaratishda keng ishlatilib kelinayotgan dasturiy ta'minotlardan biri iSpring dasturi hisoblanadi. Odatda, taqdimotni o'tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft PowerPoint dasturiy ta'minotidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo'lishi mumkin (ppt, pptx). Hozirgi vaqtda internet texnologiyalarining rivojlanishi va o'z navbatida, masofali

ta'lim turining paydo bo'lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o'zida onlayn ravishda to'g'ridan-to'g'ri ko'rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo'lishi kerak. Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan. Mahsulot iSpring deb nomlanadi va iSpring QuizMarker, iSpring PRO va iSpring Kinetics kabi variantlarga ega. Mustaqil ekspertlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda mazkur mahsulot tezligi, bir formatdan boshqa formatga konvertatsiyalash sifati va opsiyalar soniga ko'ra eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. iSpring nafaqat flash-taqdimotlarni yaratishga, balki ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan rolklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so'rovlar, elektron testlarni ham kiritgan holda o'zaro interaktiv bog'lanish imkoniyatini ham beradi.

iSpring Suite – bu PowerPoint dasturida elektron o'quv kurslarini yaratuvchi professional vosita hisoblanadi. iSpring dasturi yordamida foydalanuvchi bir nechta bosqichdagi o'quv kurslarini yaratishi va nashr qildirishi mumkin:

- a) Power Point- taqdimotlar bazasida o'quv kurslarini yaratish;
- b) Audio va video fayllarni birlashtirish;
- c) Interaktiv testlar yaratish;
- d) Interaktiv bloklar yaratish;
- e) Masofaviy ta'lim tizimi uchun ma'lumotlar tayyorlash.

iSpring Suite dasturi o'zida iSpring Pro, iSpring QuizMaker va iSpring Kinetics dasturlarini jamlagan. iSpring dasturini uskunalarini PowerPoint dasturining menyular satriga sozlanadi. iSpringning o'rnatilishi muvofaqiyatli bajarilgandan so'ng, PowerPointga iSpring instrumental qatori qo'shiladi. iSpringning funksiyalaridan tayyorlangan fayli Flash formatga o'ziga xos playback (boshqarilish)ni yuzaga keltiradi. Audio va videolar bilan Flahta tayyorlangan fayl yaxshiroq bo'ladi. Eslatma, aytish kerakki iSpring Proga qo'shiladigan xar bir ma'lumot Windows uchun o'ziga xos ahamiyatga ega.



ANKETA TIPIDAGI SAVOLLAR

- Anketa — tipidagi yangi test turi. Anketa turidagi savollar to`g`ri javoblarga ega va ular foydalanuvchidan ma`lumot olishga xizmat qiladi.
- Barcha testlarga qo`shimcha ma`lumot slaydlari qo`shimcha tushuntirishlar beruvchi savolsiz slaydlar qo`shish mumkin.
- Yangi tipda savol: 10 anketali savol va baholanuvchi «Aktiv maydon» li savol.
- Savollarga formulalar qo`shish. Bu imkoniyatdan foydalanish uchun Microsoft Equation Editor (Microsoft Office tarkibiga kiruvchi) aktivlashtirilgan bo`lishi kerak.
 - Rasm va formulalar javoblar variantlariga xam qo`yilishi mumkin.
 - Xar bir savol uchun to`g`ri/ noto`g`ri ma`lumotini alohida sozlash mumkin.
 - Shoxlanish funksiyasni qo`shish imkoniyati. Testdan o`tish yo`lini to`g`ri javoblarga qarab sozlash imkoniyati.
 - Test natijalarini ko`rsatishni topshirilgan testlarni muaffaqiyatli yoki muaffaqiyatsiz bajarilishiga qarab sozlash imkoniyati.
 - Testni Word eksport qilish imkoniyati.
 - Natijalarni chop qilish imkoniyati.
 - iSpring QuizMaker ning yangi interfeysi.

- Savollar matni va eslatmalar uchun matn shriftini o`lchami, stili va ranglarini o`zgartirish, matnlarni tekkishlash, markerli ro`yxatlar va abzaslarni sozlash imkoniyati.
 - Savollarga tushunchalar kiritish uchun yangi tipdagi media kontentlar- flash fayllar.
 - Bir javobli va ko`pjavobli savollarda xar bir javob uchun olingan ballarni ko`rsatish imkoniyati.
 - Testlarning zaxira nusxasini avtomatik yaratish imkoniyati.
 - Testlarni natijalarini hisobotlarini shablonini sozlash imkoniyati.
 - Masofadan o`qitish tizimlariga nashr qilishda testdan o`tish darajasini ko`rsatishni tanlash.
 - Testdan o`tishda urinishlar sonini 1 dan 10 gacha chegaralash imkoniyati.

SAVOLLARNI BOSHQARISH

iSpring QuizMaker markerda tarkibiga 23 tipdagi savollar kiradi bundan: 11 baholanuvchi savollar, 12 anketali savol va bitta qo`shimcha tipli «Информационный слайд» savollari mavjud.

- Savollar tipi
- Savol qo`shish va o`chirish
- Savollarni nusxalash (ko`paytirish)
- Savolga javob berishda eslatma berish
- Shoxlantirish
- Ma`lumotlar slaydi
- Testga savollarni import qilish
- Media resurslarni boshqarish
- Savollarni dastlabki ko`rish

ANKETA TIPIDAGI SAVOLLAR

Anketa tipidagi savollar foydalanuvchidan ma'lumotlar yig'ishga xizmat qiladi.

Savol	Parametrlar
-------	-------------

Likert Shkalasi

(Шкала

Ликерта)

Test topshiruvchi Likert shaklidan foydalangan holda jarayon haqida o'z fikr bildirishlari kerak.

Savolga bir necha fikrlar qo'shish mumkin va xar biri uchun alohida shkalaga ega bo'ladi. Default xolatda shkala 5 bahoga ega («To'liq qo'shilmayman», «Qo'shilmayman», «Javob berishga qiynalaman», «Qo'shilaman», «To'la qo'shilaman»), lekin bu baholashni **Оценка шкалы Ликерта** da o'zgartirib olishingiz

mumkin.

Ха/Yo`q
(Да/Нет)

Test topshiruvchi berilgan javoblardan birini tanlashi kerak ya'ni (default xolatda «Ха» yoki «Yo`q»).

Default xolatdagi «Ха» yoki «Yo`q» javoblar o`rniga istalgan boshqa javoblar qo'yilishi mumkin.

Yagona tanlash (Одиночный выбор)

Bir necha javoblar ishidan faqat bitta to`g`ri javobni tanlash.




Добавить tugmasi yordamida siz keraklicha javob variantlarini qo'shishingiz mumkin. To`g`ri javob variantini To`g`ri javob variantni kalitlar yordamida tanlang, kerak bo'lsa javoblar variantlari matnini taxrirlang. Ortiqcha variantlar Удалить tugmasi orqali o`chiriladi. Javoblar variantlari tartibini o`zgartirish uchun Вверх va Вниз tugmalaridan foydalaning.

Agar javob variantlariga qo`lda kiritish («Ввод вручную») tanlangan bo'lsa, so`rov vaqtida matn maydoni paydo bo'ladi va foydalanuvch o'z javobini yoki izoxlarini kiritishi mumkin.


Множественны й выбор (Множественны й выбор)

Test topshiruvchi ro`yxatdan to`g`ri javoblar variantlarni tanlash bir yoki bir nechtasini belgilashi mumkin.

Добавить tugmasi yordamida siz keraklicha javob variantlarini qo'shishingiz mumkin. To`g`ri javob variantlarini bayroqcha orqali tanlang, javoblar variantlarini taxrirlang. Ortiqcha variantlar


Savol	Parametrlar
	Удалить tugmasi orqali o`chiriladi. Javoblar variantlari tartibini o`zgartirish uchun Вверх va Вниз tugmalaridan foydalaning. Можно добавить произвольное количество вариантов. Agar javob variantlariga qo`lda kiritish («Ввод вручную») tanlangan bo`lsa, so`rov vaqtida matn maydoni paydo bo`ladi va foydalanuvchi o`z javobini yoki izoxlarini kiritishi mumkin.
Qisqa javob (Краткий ответ)	 Test topshiruvch matn maydoniga bir qarotli qisqa javob kiritishi kerak.
Son kiritish (Ввод числа)	 Test topshiruvch maydonfa son kiritishi kerak. Sonlar o`nlik yoki o`nli kasr son bo`lishi mumkin.
Tartiblash (Ранжирование)	 <p>Test topshiruvchi bo`limlarni o`z xoxshi bo`yicha tartiblashi kerak.</p>

Moslarini birlashtirish (Соответствие)




Test topshiruvchi o`z xoxshiga ko`ra so`z yoki so`z brikmalarini moslashi (boglashi) kerak.

So`zni tanlash (Выбор слова)



Test topshiruvchi matndagi bo`sh joylarni so`zlar bankidan foydalangan holda to`ldirishi kerak. Matnni kiriting va bir nech so`zlarni so`zlar maydoniga almashtiring. Ro`yxatga test topshiruvchi uchun tanlash imkoni bo`ladigan so`zlar elementlarini kiriting.

To`ldirish (Пропуски)



Test topshiruvchi matndagi bo`sh joylarni to`ldirishi kerak (matn maydoniga matn kiritishi).

O`rnatilgan javoblar (Вложенные ответы)



Test topshiruvchi xar bir yashirin ro`yxatdagi bitta variantni tanlashi kerak.

Esse (Эссе)

Test topshiruvchi berilgan mavzuga kengaytirilgan javob yozishi kerak.

Turli fanlardan elektron darslik va elektron o'quv qo'llanmalar yaratish uchun Autoplay Media Studio dasturi ko'plab imkoniyatlarga ega. O'qituvchilar tayyor shablonlar va multimediani qo'llab-quvvatlovchi uskunlar orqali tez va oson kerakli natijalarga erishishlari mumkin. Autoplay Media Studio bilan ishlashda deyarli dasturlash ko'nikmasini talab qilinmaydi. Foydalanuvchi faqat turli dizaynli dasturiy muhitni tanlash uchun bir nechta tayyor shakllardagi loyiha shablonlaridan foydalanishi mumkin.

AutoPlay Media Studio dasturi foydalanuvchi uchun qulay, sodda interfeysi sabab 10 daqiqadan kamroq vaqtda dasturni o'rganish imkonini taqdim etadi. Dasturlash tajribasisiz professional imkoniyatlarni foydalanuvchilarga taqdim etadi. Avtomatik ijro menyulari, interaktiv taqdimotlar, multimedia ilovalari va maxsus dasturiy ta'minotni yaratish uchun qulay vositalar to'plami mavjud. Bu elektron dasrliklarni sifatli bo'lishiga yordam beradi.

Avtomatik ishga tushuvchi oynalarni o'zining kutubxonasidagi "niqob"lardan foydalangan holda ixtiyoriy shaklda (formada) yaratish mumkin. Bunday "niqob" sifatida .jpg, .bmp va .png formatdagi foydalanilsa ham bo'ladi. Qolaversa ma'lumotlarni uchun tayyorlagan holda uni dasturning o'zidan turib, CD yoki DVDga yoza olishi Autoplay Media Studio dasturi naqadar keng imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Tayyor loyiha bunda .exe kengaytmali fayl sifatida o'zi ochiluvchi arxiv korinishda yoki qattiq diskdagi alohida papkada shakllantirilishi mumkin. Bundan tashqari, dasturga matnni orfografik tekshirish imkoniyati ham kiritilgan. Dasturning bu xossasi uning Label, Paragraph va Button kabi obyektlari bilan birga ishlaydi. Agar dastur kompyuterga to'liq versiya bilan o'rnatilgan bo'lsa, matnni orfografik tekshirish uchun uning kutubxonasida juda katta hajmdagi lug'atlar bo'lishi mumkin.

AutoPlay Media Studio 7.0 ning yangi versiyasi quyidagi imkoniyatlarga ega:

- ✓ *Avtomatik ishga tushuvchi xususiy menyu, interfaol taqdimotlar, multimedia-ilovalar, sanoqli daqiqalarda dasturiy ta'minotlarni yaratish;*
- ✓ *Loyihaga turli-tuman fotografiya, musiqa, video, animatsiya, matn va*
- ✓ *boshqalarni biriktira olish xususiyati;*
- ✓ *Web-ilova yaratishga mo'ljallangan mukammallashgan instrumentlar;*
- ✓ *XML, SQL va shifrlash mexanizmlari bilan ishlay olishi;*

- ✓ *RTF-formatli hujjatlar bilan ishlay olishi;*
- ✓ *Slyd-shou bilan ishlash imkoniyati;*
- ✓ *Matn rangini o'zgartirish uchun RadioButton obyektining mavjudligi;*
- ✓ *Bosmaga chiqarishning kengaytirilgan funksiyasi;*
- ✓ *Obyektlarni formatlash imkoniyati;*
- ✓ *Kalit so'zlar yordamida qidiruv tizimining mavjudligi;*
- ✓ *CD, DVD kabi kompakt disklarga yozish imkoniyati va hokazo.*

AutoPlay Media Studio ishga tushirilgach, avvalo loyiha bilan bog'liq bir nechta buyruqlarni oz ichiga oluvchi muloqot oynasi yuzaga keladi.

2. AutoPlay Media Studio dasturi uskunalari va ularni vazifalari.

1. **Button** – Buyruq tugmasi. Bir nechta rangdagi turli variantlari mavjud. Asosan boshqaruv funksiyasini bajaradigan buyruqlar bu tugmaga biriktiriladi.

2. **Label** – Yozuv maydonchasi. Ishchi sohadagi yozuvlar shu obyekt bilan beriladi. Yozuv gorizont va vertikal ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

3. **Paragraph** – Bir nechta satrdan iborat matnni o'z ichiga oladigan yozuv maydonchasi. Ko'rinish sohasiga sig'may qolgan pastdagi yozuvlar uning o'ng tomonidagi lift yugurdagi orqali o'qilishi mumkin, txt va quiz-kengaytmali matn fayllarini yuklab olib o'qitish ham mumkin.

4. **Image** – Turli formatdagi ikonkalar va rasmlarni ishchi sohada joylashtirish uchun ishlatiladi.

5. **Hotspot** – Shaffof holatdagi to'g'ri to'rtburchak ko'rinishdagi faollashtiruvchi obyekt. U orqali sahifada bo'sh turgan sohani biror funksiyani bajaruvchi faol sohaga aylantirish mumkin.

6. **Video** – Video fayllarni (.avi, .mpg, .wmv, mp4, ...) ishchi sohaga joylashtirish va turli o'lichamlarda ko'rish uchun foydalaniladigan obyekt.

7. **Flash** – Macromedia Flashda tayyorlangan .swf-fayllarni ishchi sohaga joylashtirish va unda foydalanish imkonini beradigan obyekt.

8. **Web** – Bu obyekt orqali htm, mht kengaytmali fayllarni ishchi sohaga Web-sahifa orqali joylashtirish va ko'rish mumkin.

9. **SlideShow** – Bir nechta grafik fayllarni bu obyekt orqali yuklab olish va ma'lum vaqt oralig'ida ketma-ket slyd ko'rinishida namoyish etish mumkin.

10. **CheckBox** – Bu obyekt orqali ishchi sohada e’lon qilingan bir nechta variantli ma’lumotlardan bir nechtasini tanlash va jarayonni davom ettirish mumkin.

11. **RadioButton** – Bu obyekt orqali ishchi sohada e’lon qilingan bir nechta variantli ma’lumotlardan faqat bittasini tanlash va jarayonni davom ettirish mumkin.

12. **ListBox** – Ishchi sohaga ro’yxat shaklidagi ma’lumotlarni joylashtirish va ulardan birini tanlash orqali jarayonni davom ettirish imkonini beradigan obyekt.

13. **ComboBox** – Ishchi sohaga ro’yxat shaklidagi ma’lumotlarni yashirin tarzda joylashtirish va ulardan birini tanlash orqali jarayonni davom ettirish imkonini beradigan obyekt.

14. **Tree** – Ma’lumotlarni daraxt ko’rinishida ishchi sohada tasvirlash imkonini beradigan obyekt.


15. **Progress** – Vaqtga bog’liq jarayonni vizual tarzda ishchi sohada aks ettiruvchi obyekt. Xususan, ko’p o’lchamli fayllarni nusxalashda, o’chirishda, xotiradan joy egallovchi dasturni ishga tushirishda foydalanish mumkin. Bu obyektlar sichqoncha yordamida dastur galeriyasidagi tayyor to’plamdan olib qo’yiladi. Multimedia hujjatlarini tayyorlash, uning dasturlanuvchi qismlari uchun scriptlar yozish, tayyorlanayotgan elektron darslikni boshqarish interfeysini yaratishda bu obyektlar dasturchiga imtiyozli yordam ko’rsatadi. AutoPlayning ajoyib xususiyatlaridan yana biri shundaki, bu obyektlar xossalarini tanlash uchun maxsus xossalar panelini ham dasturchiga taqdim etadi va u orqali bir qiymatli xossalardan samarali foydalanish mumkin.

3. AutoPlay Media Studio dasturini o’rnatish va unda yangi fayl yaratish.


1-qadam. Kompyuter xotirasiga yuklangan dastur qismlari orasidan *.exe fayl formatlisini tanlaymiz (1).

Имя	↑Тип	Размер	Дата
[...]		<Папка>	26.01.2022 12:07
ams8cm.8.5.0.0	exe	52 519 152	19.02.2015 02:19
CORE	NFO	9 683	19.02.2015 02:20
sn	txt	27 19.0	19.02.2015 02:26


2-qadam. Yangi ochilgan oynadan Next tugmasini tanlaymiz (2). Bu oynada dastur imkoniyatlari haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Shundan so’ng keyingi oyna paydo bo’ladi.




3-qadam. Quyidagi oynada dastur yaratuvchilari tomonidan foydalanish shartlari beriladi. Agar siz ushbu shartlarni qabul qilsangiz (3) dasturni o’rnatish jarayonini davom ettirishingiz mumkin. Aks holda dasturni o’rnatish shu joyda to’xtatiladi (4).




4-qadam. Demak biz "I agree to the terms of this license agreement" handini tanlasak (5). Next tugmasi faollashadi. Aynan shu tugmani tanlaymiz(6)




5-qadam. Name va Company nomli qatorlarga maktab so'zini kiriting (7). Serial Number qatoriga esa AMS-5511A-RV75E-JRKCF-WAFDR seria raqamini yozing (8). So'ngra Next tugmasini bosing (9).




6-qadam. Istasangiz dasturni o'rnatish joyini yani xotira manzilini o'zgartirishingiz mumkin (10). Aslida Windows OT barcha dasturlar standart ko'rsatilgan joyga o'rnatiladi (10). Shu sababli bu joyni o'zgartirishsiz ham qoldirish imkoniyati mavjud. Keyin Next tugmasini bosing (11).




7-qadam. Dasturdan foydalanish barcha uchun ochiq bo'lishi uchun quyidagi qismni o'zgartirishsiz qoldiring (12). So'ngra Next tugmasini bosing (13).



8-qadam. Dasturni o'rnatish joyi va foydalanish holati yana bir bor o'rnatilmoqda (14). So'ngra Next tugmasini bosing (15).



9-qadam. Dastur kompyuter xotirasiga o'rnatish jarayoni quyidagicha ko'rinish oladi



10-qadam. Dastur o'rnatish jarayoni yakunlangandan so'ng quyidagi oyna paydo bo'ladi (16). O'rnatish jarayonini yakunlash uchun Finish



tugmasini bosamiz (17).

Savol va topshiriqlar:

1. iSpring QuizMaker dasturi yordamida savollarni boshqarish tartibi haqida fikringizni bayon qiling?
2. iSpring QuizMaker dasturi yordamida testlar bazasini sozlash tartibi qanday amalga oshiriladi?
3. iSpring QuizMaker dasturi yordamida faningizga oid baholanuvchi tipidagi tuzing.

Foydalanish tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy adabiyotlar

1. Федоров А.В. "Медиаобразование в зарубежных странах". Таганрог: «Издво Кучма», 2003.
2. Aufderheide, P., Firestone, C. (1993). Media Literacy: A Report of the National Leadership Conference on Media Literacy. Queenstown, MD: The Aspen Institute, p.1.
3. Новикова А.А. "Современные тенденции развития медиаобразования в США". // «Медиаобразование», 2006, №3. С. 5461.
5. Aripov A.N. Axborot kommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish muammolari. - Toshkent 2018.
6. Mo'minov A. Axborotlashgan jamiyat va shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish muammolari//. Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari 2012. 3-son B. 148.
7. Xurramov B., Aliyev J. iSpring QuizMaker dasturida mustaqil ishash uchun mo'ljallangan uslubiy qo'llanma-Termiz: 2020.-60 b.
8. G.N.Yunusova, To'rtinchi avlod elekttron darsliklari va ularni yaratishda zamonaviy kompyuter dasturlardan foydalanish, T.2010 y
9. G.N.Yunusova, Ta'limda axborot texnologiyalari va zamonaviy dasturlar, T. 2015 y.
10. Aripov M., Dottayev S., Fayziyeva M. —Web texnologiyalari||. O'quv qo'llanma. Toshkent-2013 yil

Internet resurslari:

1. <https://bellashuv.uz/dasturlar/84-krossvord-tuzuvchi-dastur.HTML#gsc.tab=0>
2. [https://kito.bspu.by/admin-panel/vendor/kcfinder/upload/files/Lab_Est/kross / Instructional.pdf](https://kito.bspu.by/admin-panel/vendor/kcfinder/upload/files/Lab_Est/kross/Instructional.pdf)
3. <https://www.youtube.com/watch?v=t4h-tErV3fU>
4. <https://crossword-forge.en.softonic.com/>
5. <https://docviewer.yandex.ru/view/0/>

5-MAVZU: KASBIY FAOLIYAT MAZMUNIGA MOS BO'LGAN AKTNI TA'LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYA QILISHNING TURLI STRATEGIYA VA YONDASHUVLARI. (2 SOAT MA`RUZA)

REJA:

1. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limini axborotlashtirish borasida olib borilgan islohatlar.
2. Ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.
3. Media savodxonlik va media axborot.

Bugungi kunda jadal sur'atda rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari sohasini davlat tomonidan tartibga solish va uni nazorat etish muhim masalalarda biri sanala boshlandi.

Axborotlashtirish sohasini tartibga solishning muhimligi va respublikada ushbu jarayonning tezlashtirish zaruriyatini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 7-maydagi "«Axborotlashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish haqida"gi 869-XII-son Qarori, 1994-yil 6- maydagi O'zbekiston Respublikasi "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi 1060-XII-sonli qonunlar shular jumlasidandir.

1994-yil dekabrda Vazirlar Maxkamasi O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish konsepsiyasini ma'qulladi. Ushbu Konsepsiyaning asosiy maqsadi va unda qo'yilgan masalalar qo'yidagilardan iboratdir:

- milliy axborot-hisoblash tarmog'ini yaratish;
- axborotlarga tovar sifatida yondashishning iqtisodiy, huquqiy va me'yoriy hujjatlarini yuritish;
- axborotlarni qayta ishlashning jahon standartlariga rioya qilish;
- informatika industriyasini mujassamlashtirish va rivojlantirish;
- axborotlar texnologiyasi sohasidagi fundamental tadqiqotlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- informatika vositalari foydalanuvchilarini tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish.

Konsepsiyaning asosiy qoidalari hisobga olingan «O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish dasturi» ishlab chiqildi. U uch maqsadli dasturni o'z ichiga oladi:

- a) milliy axborot-hisoblash tarmog'i;
- b) EHMni matematik va dasturiy ta'minlash;
- v) shaxsiy kompyuter.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil mayda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 868-XII-sonli Qonunini amalga kiritildi. Ushbu qonunda, axborot majmui faoliyatining iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini, uning O'zbekiston Respublikasida tutgan o'rni va ahamiyatini belgilaydi, axborot egalari va axborotdan foydalanuvchilar bo'lmish davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turish belgilab qo'yildi.

Shu bilan bir qatorda mamlakatimizning barcha soholarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) joriy etish masalasiga e'tibor kuchaytirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi PF-3080-sonli Farmoni va Vazirlar Mahkamasining shu asosda 2002-yil 6-iyundagi «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 200-sonli Qarori ham mamlakatimizda kompyuterlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan asosiy davlat hujjatlaridan hisoblanib, qarorga muvofiq O'zbekiston vazirliklari, idoralari, jamoat birlashmalari tomonidan ta'lim va yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xizmatlarini rivojlantirish borasida aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar olib borish belgilab berilgan.

Axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003-yil 11-dekabrda 561-II-son qaroriga muvofiq "Axborotlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni maqsad qilib olgan va unda axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati yo'nalishlari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Hindiston Respublikasi hukumati o'rtasida 2004-yil 29-oktabrda "Axborot-texnologiyalari bo'yicha o'zbek-hind markazini tuzish to'g'risida"gi anglashuv memorandumini imzolandi. Ushbu markaz O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Hindiston Respublikasi Hukumati o'rtasida o'zlarining do'stona munosabatlarini ta'kidlab, axborot texnologiyalari sohasida ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash, axborot texnologiya sohasida jahon talablariga javob beradigan professional mutaxassislarini shakllantirish, O'zbekistonda elektron boshqaruvini shakllantirishga ko'maklashish, dasturiy Дизайн va dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish sohasidagi zamonaviy o'qitish, loyihani amalga oshirishning barcha davri bo'yicha o'qitish, ya'ni uskunani mijozning talabiga ko'ra loyihalashtirish, rivojlantirish, test o'tkazish, sinash, sozlash, moslash, foydalanishga tushirish, xizmat ko'rsatish va hokazolar yo'lga qo'yish belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida» 2005-yil 28-sentabrdagi PQ-191-son qaroriga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 28-dekabrda 282-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga asosan mamlakat maktablari, akademik litseylar, kollejlari, oliy o'quv yurtlari, yoshlar tashkilotlari, kutubxonalar, muzeylar va boshqa ta'lim, ilmiy va madaniy-ma'rifiy muassasalarni xalqaro axborot tarmog'iga, shu jumladan internet tarmog'iga ulash faqat "ZiyoNET" tarmog'i orqali amalga oshirish belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2005-yil 2-iyunda "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-91-sonli qarorida, axborot va kompyuter texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya hamda innovatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishni yanada kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Xalq ta'limida ham axborot texnologiyalari joriy etish va bu soha bo'yicha kadrlar salohiyatini oshirish masalasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Xalq ta'limi vazirligining 2006-yil 3-avgustdagi «2006-2007 o'quv yilini «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda pedagog kadrlar salohiyatini oshirish o'quv yili» deb nomlash to'g'risida» gi 6/5-HB-sonli buyrug'ida, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim tizimiga tatbiq qilinishini jadallashtirish va barcha pedagog kadrlarning kompyuter savodxonligini ta'minlash asosiy maqsad etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 17-dekabrda "Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 259-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2008-yil 19-sentabrda "Xalq ta'lim tizimidagi muassasalarida kompyuter texnikasidan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 223-sonli buyrug'i.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2011-yil 23-martda "Umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning zamonaviy AKTdan foydalanish to'g'risida"gi 61-sonli buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martda "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1730-sonli Qarori, 2013-yil 27-iyunda "O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989-sonli qarorlari, Hukumatning tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlari, Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 20-fevralda "Xalq ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalari kadrlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va multimedia resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha malaka oshirish o'quvlarini tashkil etish to'g'risida" 38-sonli buyrug'i, va boshqalar. Ushbu qonun va qarorlarning asosiy maqsadi, mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va multimedia resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2015-yil 4-fevralda "O'zbekiston respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabr "Elektron hukumat to'g'risida"-395-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 12-avgust "Elektron hukumatning idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'ini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 262-son qarorlarga muvofiq axborotlashtirishni markazlashgan holda boshqarish va hukumat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish belgilab berilgan.

Ulug' alloma Muhammad Al-Xorazmiyning buyuk va bebaho merosini qadrlash, uni yosh avlod ongiga chuqur singdirish, o'quvchilarning aniq fanlarning yuksak marralarini zabt etishiga ko'maklashish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi iqtidorlarini aniqlash hamda qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muhammad al-

Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2018 yil 9 yanvar kuni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Ushbu yig'ilishda axborotlashtirish sohasini rivojlantirish, internet tezligini oshirish, "Elektron hukumat" tizimini yanada rivojlantirish va boshqa axborot texnologiyalarini rivojlantirishga doir masalalarga alohida e'tibor qaratib o'tdi. Ko'rib chiqilgan masalalar yuzasida soha vakllariga tegishli topshiriqlar berildi.

Mamlakatda zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan hamda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini boshqarish va joriy etish sohasidagi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar ushbu sohaning jadal rivojlanishiga, sifatli axborot xizmatlarini ko'rsatishda muammolarni bartaraf etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevralda "O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3549-son qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4024-son qaroriga asosan davlat va jamiyat boshqaruvi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini joriy etish mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar va o'zgarishlarni samarali amalga oshirish hamda davlat organlari va tashkilotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi kurashishga to'stinlik qiluvchi muammolar bartaraf etish borasida masalalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 mayda «Elektron hukumat» tizimi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4328-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda «Elektron hukumat» tizimi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishning samarali va shaffof mexanizmlarini yaratish, mazkur sohadagi loyihalarni, loyiha va texnik hujjatlarni sifatli ekspertizadan o'tkazish bo'yicha bir qator masalalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2019 yil 10 yanvardagi 17-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15 iyulda "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 589-son qarorida axborot texnologiyalari sohasini va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ushbu sohadagi startap-loyihalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ichki va tashqi bozorlarda dasturiy va yuqori texnologiyali mahsulotlar va xizmatlarni targ'ib qilishga ko'maklashish maqsad qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-2020-yillarda respublikadagi umumta'lim maktablarini kompyuter texnikasi bilan ta'minlash hamda xalq ta'limi tizimida axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida ID-2110-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2019-2020-yillarda ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnik vositalari bilan jihozlash hamda xalq ta'limi tizimida axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini joriy etish bo'yicha "Umumta'lim maktablarini kompyuter texnikasi bilan ta'minlash dasturi" hamda "Xalq ta'limi tizimida axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini joriy etish dasturi" amaliyotga joriy etish masalalari kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevral "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli qarori qabul qilindi. Qarorning asosiy maqsadi "Raqamli O'zbekiston — 2030" Strategiyasiga muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning

yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-iyulda "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 475-sonli qarori qabul qilindi. Qarorning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmoni, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qaroriga muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ushbu sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishdir.

Ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda.

Axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilaridan biridir. Milliy dasturda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg'u berilgan. Axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televidenie dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:

- o'quv jarayoni uchun axborotli vositalar samara beradigan mavzular yuzasidan didaktik materiallarni ishlab chiqish.
- pedagoglarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish.
- axborotli ta'lim jarayoni oldindan pedagogik loyihalangandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Pedagogik jarayonni kompyuterlashtirish asosiy yo'nalishlaridan biri va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning shug'ullanishi lozim bo'lgan sohasidir.

Axborot texnologiyalari – bu odamlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma'lumotlarni tashkil etish, saqlash, ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalaridir. Yana shuningdek, axborot texnologiyalari deganda, ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar zanjiridan iborat yaratuvchi faoliyat tushuniladi. Agar texnologik zanjirni tashkil etuvchi jarayonlar, ular orasidagi axborot almashinuvini tashkil etish va ularni uyg'unlashtirishda kompyuterlardan foydalanish imkoniyati yaratilsa, har qanday texnologiyaning samaradorligi ortadi.

Albatta, buning uchun mazkur texnologiyani sinchiklab o'rganish, jarayonlardagi va ular o'rtasidagi axborot almashinuvini, shuningdek, jarayonlar zanjirini (ya'ni texnologiyani) boshqarishning axborot ta'minotini tahlil etish zaruriyati paydo bo'ladi.

Hozirgi zamon axborot texnologiyalarining asosini quyidagi uchta texnika yutug'i tashkil etadi:

1. *Axborotning mashina o'qiydigan tushunchalarda jamlash muhitining paydo bo'lishi* (magnit, lentalar, kinofilmlar, magnit disklar va h.);

2. *Axborotni yer sharining istalgan nuqtasiga vaqt va masofa bo'yicha muhim cheklashsiz yetkazishini ta'minlovchi aloqa vositalarining rivojlanishi, aholining aloqa vositalari bilan keng qamrab olinishi* (radio eshittirish, televideniye, ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari, yo'ldosh aloqa, telefon tarmog'i va h.);

3. *Axborotni kompyuterlar yordamida berilgan algoritm bo'yicha avtomatlashtirilgan ishlab chiqish imkonini* (saralash, tasniflash, kerakli shaklda ifodalash, yaratish va h.) oshirish.

Axborot texnologiyalari, **birinchidan**, axborotning sirkulyatsiyasi va ishlov berish majmui, **ikkinchidan**, bu jarayonlarning tasviridir.

Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida muhim o'rin tutib, quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- har bir odamga xos noyob fazilatlardan iborat individual qobiliyatlarni o'qitilayotgan o'quvchi va talabalarda ochish, saqlash va rivojlantirish, ularda bilish qobiliyatlarini, o'zini o'zi kamolotga yetkazishga intilishni shakllantirish;

- voqea va hodisalarni kompleks o'rganishni, aniq, tabiiy-ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy, gumanitar fanlar va san'at orasidagi o'zaro bog'liqlikning chambarchasligini ta'minlash;

- o'quv-tarbiya jarayonlarining mazmun, shakl va metodlarini doimiy tarzda va dinamik ravishda yangilash.

Ta'lim tizimi nuqtai nazaridan axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan birga yuzaga keladigan quyidagi muammolar muhimdir:

1. **Texnik muammolar** – bular ta'lim tizimida foydalaniladigan elektron-hisoblash va mikroprotsessor texnikasiga qo'yiladigan talablarni, ularni amalda qo'llash xususiyatlarini belgilaydi;

2. **Dastur muammolari** – bular ta'lim tizimida foydalanish uchun dastur ta'minotining tarkibi va turlarini, ularning qo'llanish tarkibi va xususiyatlarini belgilaydi;

3. **Tayyorgarlik muammolari** – bular o'qituvchi va o'quvchi, pedagog va talabalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan, hisoblash texnikasidan ham foydalanish uquvi bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda ta'limni axborotlashtirishda asosiy yo'nalish turli o'quv fanlari bo'yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo'lib qoldi. Ammo mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalari o'qitish nuqtai nazaridan ta'lim sifatida muhim siljishlarga olib kelishi mumkin. Buning sabablaridan biri-kompyuter texnologiyalari an'anaviy tashkil etilgan o'qitish jarayonida joriy etila boshlanganligidir. U o'zining asosiy mazmuni va metodlari bo'yicha bu texnologiyalarga yo'naltirilmagan va ularga ehtiyoj sezmaydi.

Ta'lim texnologiyalari doimo axborotli bo'lgan, chunki ular ko'p xil axborotni saqlash, uzatish, foydalanuvchilarga yetkazish bilan bog'liq edi. Kompyuter texnikasi va kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi bilan o'qitish texnologiyalari tubdan o'zgardi. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini amalga oshirilishi quyidagilarning mavjud bo'lishini taqozo etadi:

- ta'limning texnik vositalari sifatida kompyuterlar va kommunikatsiya vositalari;

- ta'limjarayonini tashkil etish uchun unga mos tizimli va amaliy dastur ta'minoti;

- ta'lim-tarbiya jarayonida yangi o'quv-texnika vositalarini tatbiq etish bo'yicha mos metodik ishlanmalar.

Keyingi vaqtlarda «o'qitishning kompyuter texnologiyalari» tushunchasi tarqalib, bunda kompyuterlar bazasida amalga oshirilgan o'qitish

texnologiyalari tushuniladi. Biroq axborot texnologiyalari tushunchasi o'qitishning kompyuter texnologiyalari tushunchasidan kengroqdir, chunki kompyuterlar axborot texnologiyalari texnik vositalarining tarkibiy qismidir.

Bugungi kunda turli optik xotirlovchi qurilmalar (Видеодisklar, optik disklar) keng tarqaldi. Ulardan foydalanish matnli grafik axborotni bir vaqtda birgalikda yozish imkonini beradi, shu bilan birga uni qayta tiklashda yuqori sifatli tasvir paydo bo'ladi. Magnit yozuvdan farqli o'laroq, optik diskdagi yozuv istalgan sondagi qayta tiklashlarda ham yomonlashmaydi. Kompyuterlar ishining dasturiy-matematik ta'minoti yuqori texnologik ishlab chiqarish taraqqiyotining muhim yo'nalishi bo'lmoqda.

Shuningdek, texnik va dasturli axborot texnologiyalari ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

EHM tarmoqlari. Hozirgi vaqtda bilimlarning barcha sohalarida EHM yoki kompyuter (lokal yoki global) tarmoqlari keng tarqalgan. EHM lokal tarmoqlari uncha katta bo'lmagan fazoda amalga oshiriladi va axborot xizmati turli tarmoqlarining integratori bo'ladi. Ular tashkilotlardagi barcha axborot texnologiyalari vositalarini birlashtiradi hamda ularning samaradorligini oshiradi. EHM global tarmoqlari esa, axborotni katta masofalarga uzatilishini amalga oshirish imkonini beradi.

Yo'ldoshli aloqa tizimlari. Ko'plab yer ustidagi stansiyalarni va yer sun'iy yo'ldoshidagi retrenslyatorlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunga kelib, bu tizimlar kompyuterlar orasidagi aloqani amalga oshirish uchun ma'lumotlar to'plash hamda телеВидение dasturini uzatish uchun ishlatilmoqda.

Sun'iy intellekt tizimlari. Sun'iy intellekt elementli AKTning boshqalaridan farqi shundaki, oddiy AKTlari faqat statistik ma'lumotlarni, sun'iy intellekt tizimlari esa bilimlarni ishlab chiqadi. Informatikaning alohida yo'nalishi-sun'iy intellektdir. Odam aqliy faoliyatining ba'zi turlarini amalga oshiruvchi dasturli-texnika vositalari ishlab chiqilmoqda.

Elektron pochta. «Elektron pochta» - bu korrespondensiyalar almashishi uchun pochtaga o'xshash axborot uzatish va ishlab chiqishning elektron usullaridan foydalanish, ya'ni bosma materiallar, jadvallar va jurnallarni uzatish hamda elektron pochta yoki qog'ozsiz pochta aloqalari xizmatidan iborat bo'lib, u xabarlarini to'plash, ishlab chiqish va taqdim etish hamda ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari tizimidir.

Elektron pochta asosida aholiga elektron gazeta va jurnallar kabi axborot xizmati ko'rsatish amalga oshirilgan. So'nggi yillarda jahon bozorida elektron

nashrlar borgan sari ko'p o'rin egallamoqda. Bu jarayon kompakt optik disklar keng tarqalishi bilan tezlashdi.

Telekonferensiyalar. Telekonferensiyalar zamonaviy axborot texnologiyalarning amalga oshirilishiga misol bo'la oladi. Telekonferensiyalarni o'tkazish uchun quyidagi apparaturalardan foydalaniladi: terminallar, televizion kameralar, grafik displeylar, katta namoyish ekranlari. Shuningdek, telekonferensiyalar orqali dolzarb masalalar muhokamasini tezkorlik bilan tashkil etish, muhokama uchun istalgan rasmi materiallardan foydalanish, dolzarb masalalarni muhokama qilishda ishtirok etuvchi mutaxassislar doirasini kengaytirish, xalqaro ma'lumotlar banklaridagi istalgan axborotdan foydalanish kabi imkoniyatlar yuzaga keladi.

O'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari o'quvchi-talabani emas, u eng avvalo, o'qituvchi (pedagog)ning texnologiyasidir. O'quvchi zamonaviy axborot texnologiyasini o'rganmaydi, balki uning mahsulotidan o'qitishning texnik vositasi sifatida foydalanadi. O'qituvchi (pedagog) zamonaviy texnologiyalarni qo'llab darsga tayyorlanadi, darsni tashkil qiladi, o'quvchi bilimni nazorat qiladi va uning vazifasi ta'lim mazmunini takomillashtirish uchun kompyuterlashtirishning eng yuqori darajasidagi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga olib kirishdan iborat bo'ladi.

Axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashni rivojlantirish omillari kompyuterlashtirishning har ikkala yo'nalishini ham rivojlantirib borish zaruriyatiga bog'lanadi. Buning uchun shu sohada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda uzluksiz ta'lim tizimining hamma bosqichlarida «kompyuterlashtirishning konsepsiyasi» yaratilishi lozim.

Kompyuterli texnologiyalar dasturli o'qitish g'oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning noyob imkoniyatlari bilan bog'liq ta'limning hali tadqiq qilinmagan yangi texnologik variantlarini ochadi. Ta'limning kompyuterli (yangi axborot) texnologiyalari - bu axborotni tayyorlash va uni ta'lim oluvchiga uzatish jarayoni bo'lib, uning amalga oshirish vositasi kompyuterdir, ya'ni:

- o'quvchi-talabalarda axborot bilan ishlash mahoratini shakllantirish, ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish;
- «axborotli jamiyat» shaxsini tayyorlash;
- ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish imkoni darajasidagi va yetarli miqdorda axborot bilan ta'minlash;

- o'quvchida tadqiqotchilik mahoratini, optimal qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Kompyuterli texnologiya mazmuni bir qancha shakllantirilgan modelni qo'llashga asoslangan bo'lib, bu model kompyuter xotirasiga yozib qo'yilgan pedagogik dasturli vositalar va telekommunikatsiya tarmog'ining imkoniyatlari orqali namoyon bo'ladi.

Axborot texnologiyalaridan faqat o'quv jarayonida emas, balki uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarni ilmiy-texnik va maxsus axborot bilan ta'minlaydigan axborot ishida, ta'lim tizimini boshqarishda va kadrlarning malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash tizimida ham foydalanish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etishda ularning texnik vositalarini integratsiyalash asosiy yo'nalish bo'lmoqda. Shu munosabat bilan, hatto «multimedia» tushunchasi paydo bo'ldiki, u o'qitishda ko'pchilik texnik vositalardan kompleks foydalanishni bildiradi. Multimediani qo'llagan holda eng muhim narsa o'quvchilarni kerakli axborotni tanlab olishga o'rgatishdan iborat bo'ladi. O'qituvchining vazifasi axborotni berishdan iborat emas, balki uni topishda yordam berishdan iborat bo'ladi, o'qituvchi bilimlar sohasida yo'l ko'rsatuvchi hamdir.

Bu kabi o'qitish vositalari kompleksidan foydalanilgan holda o'quvchi-talabaga ta'sir ko'rsatish birgina axborot kanallari (ko'rish, eshitish va h.k.) orqali amalga oshiriladi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi.

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanilganda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish shakllarini tiklash muammosi yangicha hal etilishi lozim. Agar an'anaviy ta'limsharoitlarida bilish faoliyatini tashkil etishning eng ko'p tarqalgan shakllari individual va frontal shakllar bo'ladigan bo'lsa, axborot texnologiyalaridan foydalanish sharoitida ularning ikkalasidan bir vaqtda foydalanish mumkin.

Shuningdek, ta'limjarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi o'qituvchi (pedagog) vazifasining o'zgarishiga sabab bo'ladi, ya'ni pedagog ta'lim-tarbiya berishdan ko'ra ko'proq tadqiqotchi, tashkilotchi, maslahatchi va dasturlovchiga aylana boradi. Bularning hammasi esa o'qituvchi(pedagog)larni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini o'zgartirishni talab qiladi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, o'qituvchilarning axborot madaniyati asoslari metodologik, umumta'limiy, umummadaniy xarakterda bo'lib, pedagog xodimlarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida barcha o'quv fanlari kompleksini o'rganishda shakllanishi lozim.

Ma'lumki, o'qituvchilarning an'anaviy o'qitish usulida laboratoriya va amaliy ishlar o'tkazilishiga ko'p vaqt ajratiladi. Bu mutaxassis tayyorlashning juda muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat o'quvchining nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o'quv materialini o'zlashtirish samarasini oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga ham ko'mak beradi. Biroq bunday mashg'ulotlar to'laqonli natija beradi, deya olmaymiz. Sababi-laboratoriya jihozlari yetarli darajada emasligi hamda ko'pgina laboratoriya va o'quv xonalari zamonaviy moslama va uskunalar bilan jihozlanmaganligi, mavjudlarining ham aksariyati ma'naviy eskirib qolganligi va bugungi kun talablariga to'liq javob bera olmasligidadir. Texnologiyalar tez sur'atda rivojlanayotgan hozirgi vaqtda amaliy mashg'ulotlar uchun laboratoriya va stendlarni har bir o'quv yilida takomillashtirish talab etiladi. Buning uchun esa qo'shimcha sarf-xarajatlar qilish kerak. Boshqa yana bir muhim omil shundaki, ba'zi laboratoriya tadqiqotlaridagi ish yoki jarayonlarning sustligi sababli ajratilgan vaqt ichida ta'lim oluvchilar takror tahlil yoxud sinovlar o'tkazishga qiynalishadi, holbuki, ma'lum bir sohada yetarlicha ish ko'nikmalari va tajriba orttirish uchun amaliy mashg'ulotlarni qayta-qayta takrorlash zarur. Afsuski, an'anaviy ish olib borish sharoitida laboratoriya moddiy ashyolari hamda moslamalarining tez-tez buzilishi va shu bilan bog'liq ashyolarga qo'shimcha sarflar qilinishi bois har doim ham bunday qilinavermaydi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olib, yangi tizim mutaxassis kadrlarini tayyorlash uchun muhim vazifalarni hal etishga yordam bera oladigan yangi samarali, hammabop pedagogik uslubni joriy etish zaruriyati tug'ildi, deb ayta olamiz. Buning uchun laboratoriya stendlari va o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar barcha talabalar uchun nafaqat qiziqarli, balki qulay va oson bo'lishiga erishmoq lozim. Mashg'ulotlar o'ziga jalb eta olishi, barcha ruhiy va didaktik omillarni hisobga olishi, jarayonlarni jo'shqin tarzda namoyon etishi, mashg'ulotlar o'tkazish va o'qitilayotgan fanni o'zlashtirishni, umuman butun o'qitish samarasini oshirishi, egallangan bilimlar xususida o'ziga-o'zi baho berish imkonini ta'minlamog'i zarur. Aynan shu nuqtai nazardan zamonaviy axborot texnologiyalarining tadqiq etilishi yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni maqbul tarzda hal qilish va an'anaviy o'qitish usulining bir qator kamchiliklarini bartaraf etishga ko'mak beradi.

Bugungi kunga kelib, ta'lim muassasalarida virtual stendlardan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Xo'sh, virtual stend deganda nimani tushunamiz? **Virtual stend** – o'quv amaliy stendi yoki o'quv-malaka ustaxonasi bo'lib, o'quvchi-talabalarning nazariy bilimlarini

mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma'lum yo'nalishda zaruriy ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

Virtual stendlar har bir o'quvchi uchun texnikaga o'zining kirish parametrlarini «buyurishga», o'z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Laboratoriya ishini o'tkazish, uni zarur tartibda tushunish va hokozolar bilan bog'liq vaqtdan yo'qotish esa kompyuter samarasi hisobiga kamaytiriladi.

Bunda, ayniqsa, zamonaviy jihozlar va apparatlarni xarid qilish, ularni barcha ta'lim muassasalarida taqsimlash bilan bog'liq ulkan moliya zaxiralarining tejab qolinishi muhimdir. Zamonaviy axborot texnologiyasi bo'lgan oddiy kompakt diskka o'nlab, ba'zan esa, yuzlab laboratoriya ishlarini joylashtirish mumkin. Endi esa bir dona shunday virtual laboratoriya stendi necha marta arzonga tushishini hisoblab chiqish qiyin emas. Bundan tashqari, ular bilan birga ta'lim muassasalarini yalpi ta'minlash mumkin. Agar ularda Internetga ulangan kompyuter tarmog'i bo'lsa, undan ham yaxshi bo'ladi. Bundan shuni ko'rish mumkinki, virtual stendlar ko'proq qo'llansa, shunday sarflarning oldini olish mumkin bo'ladi.

Demak, ta'lim jarayonida virtual stendlardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshiribgina qolmay, balki ulkan moliya zaxiralarini tejashga imkon beradi hamda xavfsiz, ekologik toza muhitni yaratadi. Virtual stendlar joriy etilishi ta'lim, ishlab chiqarish, boshqa davlat muassasalarining umumiy yondashuvini talab qiladi. Virtual o'qitish stendlarini, ayniqsa, qimmatbaho jihozni xarid qilishdan oldin diqqat bilan o'rganib chiqish zarur. Bu xodimlarni mahalliy sharoitda o'qitishga, ta'lim oluvchilarni xorij mamlakatlariga guruh-guruh bo'lib jo'nashining oldini olishga imkon yaratadi.

Shunday qilib, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi quyidagilarga olib keladi:

- ta'lim jarayonini, o'quvchilarning aniq tayyorgarlik darajasini, qobiliyatlarini, yangi materialni o'zlashtirish sur'atini, qiziqish va mayllarini hisobga olib ko'proq individual ravishda yordam berish;

- o'quvchilarning bilish faoliyatlarini kuchaytirish, ularning o'z-o'zini takomillashtirish, ta'lim va kasbga qiziqishlari hamda intilishlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;

- ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, borliq hodisalarini kompleks o'rganish;

- ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, omilkorligi, tashkil topish shakllari va usullarini takomillashtirish hisobiga uni doimiy va dinamik yangilash;

- barcha ta'lim muassasalarida o'qitishning muammoli va kompyuter vositalaridan hamda virtual stendlardan foydalanish;

- ta'lim jarayonining texnologik bazasini hozirgi zamon texnik vositalarini joriy etish yo'li bilan takomillashtirish.

Bugungi kunda ko'plab kompyuter, aloqa va hisoblash texnikasi ishlab chiqarayotgan firmalar yangi platformadagi ixcham sensorli zamonaviy kompyuterlarni ishlab chiqarmoqdalar. Bularga planshet, smartfon va mobil qurilmalarni keltirish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarning statistik ma'lumotlariga ko'ra, mobil qurilmalar aksariyat hollarda intellektual tizim tashkil etuvchisi smartfon yoki planshetlar hisoblanadi. Planshetni boshqarish uchun sensorli ekrandan foydalaniladi. U bilan ishlash fizik klaviatura va sichqoncha qurilmasidan foydalanmasdan, barmoqlar yordamida amalga oshiriladi.

Media savodxonlik va media ta'lim

«Bugun mediasavodxonlik—bu axborotning nega va nima uchun usatilyotganligini bilish demakdir. Mediasavodxon inson o'ziga—bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? — degan savolni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondasha olishi lozim. Mazkur savollar nafaqat oila davrasida televizor ko'rayotgan, mashinada radio eshitayotgan yoki Internetdagi xabarlarini ko'rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir», — deydi jurnalist Nargis Qosimova o'zining «Mediasavodxonlik va mediata'lim: Mohiyat» nomli maqolasida.

Ma'lumotlarda keltirilishicha, medialoglar media va mediatexnologiyalarni o'rganib chiqib, ularni shartli ravishda 5 turga bo'lganlar:

1. Dastlabki media — yozuv;
2. Bosma media — bosma nashrlar, litografiya, fotografiya;
3. Elektrik media — telegraf, telefon, ovozi yozuv;
4. Mass-media — kinematograf, televideniye;
5. Raqamli media — kompyuter, Internet.

«Media» — lotincha «media» so'zidan olingan bo'lib, «vosita», «vositachi» yanada aniqrog'i, «ommaviy axborot vositalari» degan ma'noni

anglatadi. Media uzluksiz ta'lim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, darsning sifatli o'tilishi va o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, modem, foto, video, kompyuter texnologiyalari, Internet bilan do'stlashish, bilimlarni kengaytirish imkonini yaratadi. «Lekin media yaxshilik bilan bir qatorda, yovuzlikka ham xizmat qilishga qodir. Bugun «o'rgimchak odam»ga havas qilib, o'zini pastga otgan bolalar, reklamalarda berilayotgan barcha axborotlarga ishonuvchi shaxslar, yot g'oyalarga ergashib ketayotgan kimsalar ham bor», — deydi jurnalist o'z fikrining davomida.

Media-savodxonlik ta'limi ommaviy axborot vositalarining ta'siri to'g'risida xabardorlikni oshirish va ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilish va yaratishda faol pozitsiyani yaratish uchun mo'ljallangan. Media savodxonligi bo'yicha ta'lim Amerika Qo'shma Shtatlari va ba'zi Evropa Ittifoqi mamlakatlarida o'quv dasturining bir qismidir va media-savodxonlik fanlari va o'qituvchilarining fanlararo global hamjamiyati ilmiy va professional jurnallar va milliy a'zolik uyushmalari orqali bilim almashish bilan shug'ullanadi.

Media savodxonligi bo'yicha ta'lim ko'pincha odamlarni tomosha qilgan, eshitgan va o'qigan narsalari to'g'risida savollar berishga undaydigan so'rovga asoslangan pedagogik modeldan foydalanadi. Media-savodxonlik an'anaviy yozma va bosma matn formatidan tashqariga chiqib, zamonaviyroq manbalarni o'rganishga o'tmoqda.

Media-savodxonlikning ayrim misollari qatoriga televizor, video o'yinlar, fotosuratlar va audio xabarlar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi. Media-savodxonlik ta'limi odamlarga xabarlarni tanqidiy tahlil qilish uchun qabul qiluvchi media qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan vositalarni taqdim etadi, o'quvchilarga ommaviy axborot vositalari haqidagi tajribalarini kengaytirish imkoniyatlarini taqdim etadi va o'zlarining media-xabarlarini tayyorlashda ijodiy qobiliyatlarni oshirish uchun ommaviy axborot vositalarining qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

